

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MOLIYAVIY MENEJMENT FAKULTETI

“MENEJMENT VA MARKETING” KAFEDRASI

XAMRAYEVA GULSHAN ILXOMOVNA

**«INVESTITSION JOZIBADORLIK VA ULARNI SAMARALI
BOSHQARISH MEXANIZMI»**

«Moliyaviy menejment» fakulteti
dekani iqtisod fanlari nomzodi, dotsent
Astanakulov Olim Tashtemirovich
«_____»_____2015

«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»
«Menejment va marketing» kafedrası
mudiri iqtisod fanlari nomzodi
Jumaev Otabek Tolibovich
«_____»_____2015

Bitiruvchi :

5230200 -“Menejment”- ta'lim yo'nalishi
4 -kurs talabasi
Xamrayeva Gulshan Ilxomovna

Ilmiy rahbar:

iqtisod fanlari nomzodi Saydaxmedov Obidxon Anvarovich

TOSHKENT - 2015

Men, Xamrayeva Gulshan Ilxomovna ushbu BMini mustaqil bajardim, ko'chirmachilik holati yo'qligiga javob beraman. Ko'chirmachilikka yo'l qo'ygan holatimda BMI kafedra mudiri taqdimnomasiga asosan rektor buyrug'i bilan bekor qilinishi va "qoniqarsiz" baho qo'yilishini bilaman.

_____ Xamrayeva Gulshan Ilxomovna

MUNDARIJA

	bet
KIRISH.....	3
 I BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTINI TUBDAN ISLOH QILISH VA RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSİYALARNING AHAMIYATI VA NAZARIY ASOSLARI.....	 7
1.1 Investitsiyalarning mohiyati, turlari va unga ta'sir etuvchi omillar.....	7
1.2 Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida investitsiyalar- ning iqtisodiy mohiyati va iqtisodiyotga jalb qilishning ob'yektiv zarurligi.....	16
1.3 Investitsiya siyosati doirasida investitsiya faoliyatini xorijiy kredit liniyalari orqali moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	27
 II BOB. IQTISODIYOTIMIZNING TARMOQLARINI MODER- NIZATSIYA QILISH VA TEXNIK YANGILASHDA MAQSADLI INVESTITSİYALAR KO'LAMINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	 37
2.1 "Nobel-Pharmsanoat" MChJning tashkil topishi hamda uning faoliyati tasnifi.....	37
2.2 "Nobel Pharm sanoat" MChJning tashkiliy strukturasi hamda ijtimoiy-iqtisodiy va moliyaviy holati tahlili.....	45
 III BOB. MAMLAKATIMIZDA OLIB BORILAYOTGAN INVESTITSIYA SIYOSATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASIDAN FOYDALANISH.....	 57
3.1 Investitsiyalarni jalb qilish, yo'naltirish va qayta taqsimlash samaradorligini oshirish yo'lida jahon amaliyoti tajribalaridan foydalanish.....	57
3.2 O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini va yetakchi tarmoqlarini investitsiyalar yordamida rivojlantirish va uni boshqarish.....	60
XULOSA.....	65
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	69

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va sohalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va shu asosda mamlakatimiz hududida istiqomat qilayotgan kishilar turmush farovonligini muttasil yaxshilab borishga qaratilgan.

Jahon xo'jalik tizimida globallashuv jarayonlari chuqurlashib borayotgan va respublikamizda ochiq iqtisodiyot asoslari shakllantirilayotgan bugungi kunda samarali investitsiya siyosatini yuritish, ishlab chiqarish obektlarini tubdan modernizatsiya qilish orqali eksport hajmini oshirish hamda raqobatbardosh tovar va hizmatlarni jahon bozoriga chiqarish, milliy iqtisodiyotga kirib kelayotgan investitsiyalar oqimini kengaytirish va investorlar faoliyatini rag'batlantirish uchun qulay huquqiy va me'yoriy shart-sharoitlarni barpo etish, shuningdek, xorijiy investitsiyalar samaradorligini izchil oshirib borish mazkur maqsadga erishishning eng muhim omillaridan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaganidek, "Biz oddiy bir haqiqatni doimo esda tutishimiz darkor. Yani, sarmoyasiz taraqqiyot yo'q, ishlab chiqarishni va umuman, mamlakatimizni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashni investitsiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi."¹

Bundan tashqari davolash muassasalari va poliklinikalarda, davlat tomonidan kafolatlangan, aholini dori-darmon vositalari bilan ta'minlashga bog'liq bo'lgan ko'p muammolar paydo bo'lmoqda. Ushbu muammolarning echimi, Respublikamiz farmatsevtika sohasini yanada rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirigan holda, aholini ijtimoiy-iqtisodiy himoyasini ta'minlash darajasini oshiradi.

Shu bois farmatsevtika xom-ashyolari va dori-darmon vositalarini bozorga kerakli miqdorda etkazib berilishini ta'minlashdan tashqari, uni ishlab

¹ I.A.Karimovning 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi./-Toshkent:O'zbekiston, 2014-64b

chiqarish, qayta ishlash, iste'molchilarga o'z vaqtida yetkazib berish, sotuvni tashkil etish alohida ahamiyatga ega. Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston farmatsevtika bozorini mahsulotlar bilan ta'minlanishida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlovchi o'zaro bog'liq, barqaror tizimga integratsiyalashtiruvchi jarayonni shakllantirish ob'yektiv zaruratga aylanmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ohirgi yillarda respublikamizda investitsiya siyosatini takomillashtirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha qator ijobiy ishlar amalga oshirildi.

Jalb etilgan xorijiy investitsiyalarning asosiy qismi real sektorga, yani ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishga va texnik- texnologik qayta qurollantirishga yo'naltirildi. Xorijiy investitsiyalarni keng miqyosda jalb etish natijasida mamlakatimizning eksport salohiyati sezilarli darajada oshdi, ko'plab yangi ish o'rinlari yaratildi, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma tarmoqlari faoliyatining samaradorligi ortdi.

Shu bilan birga investitsiyalarni jalb etish va ularning samaradorligini oshirish bo'yicha hal etilishi lozim bo'lgan muammolar ham talaygina. Xususan, jalb etilgan investitsiyalar hajmi iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish uchun etarli bo'lmayapti, shuningdek, xorijiy investitsiyalar katta qismining bir nechta mintaqalarda to'planib qolganligi respublikamiz mintaqalarida mavjud tabiiy-iqtisodiy salohiyatdan to'liq foydalanish imkoniyatlarini cheklab qo'ymoqda.

Shu munosabat bilan respublikamizda qulay makroiqtisodiy shart-sharoitlar barpo etish, xorijiy investitsiyalar jalb etish samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega bo'lib, mazkur bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi iqtisodiyotni modernizatsiyalash va jahon xo'jalik tizimida globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi sharoitida O'zbekiston investitsiya siyosati samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun ishda quyidagi vazifalar qo'yilgan:

- qator yillar davomida o'tkazilgan islohotlar va investitsiya siyosatining asosiy tamoyillari va yo'nalishlarini ilmiy jihatdan asoslash;

- O'zbekiston Respublikasi investitsiya siyosati va uning o'ziga hos jixatlarini ochib berish hamda tegishli hulosa va takliflarni shakllantirish;

- ishlab chiqarishni modernizatsiyalash mehanizmlarini takomillashtirishga oid ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish;

- xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish orqali milliy iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiyalashning huquqiy instuttsional tahlil qilish asosida uni yanada takomillashtirishga oid ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish;

- mustaqillik yillarida O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar jalb etish dinamikasini tahlil qilish va unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;

- investitsiya siyosatidagi isloxotlar va kapitallarni jalb etishning tarmoq va hududiy tarkibini tahlil qilish asosida ushbu sohadagi mavjud muammolarni aniqlash;

- respublikamizning tabiiy-iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda O'zbekistonda qulay investitsion muhit barpo etish omillari va shart-sharoitlariga baho berish;

- iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida O'zbekistonda olib borilayotgan investitsiya siyosati va modernizatsiya qilish mehanizmlarini takomillashtirishning istiqbol ko'rsatkichlarini aniqlash.

BMI ob'yekti sifatida «Nobel Pharmsanoat» chet el farmatsevtik korxonasi, O'zbekiston respublikasi investitsiya siyosatining hamda uning milliy xo'jalik tizimlarini modernizatsiyalashdagi o'rni tanlab olindi.

BMI predmeti bo'lib, mamlakatimizda olib borilayotgan investitsiya siyosati, uning samaradorligini taxlil qilish va milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar majmuidan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy-amaliy ahamiyati. Investitsiya siyosati, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash hamda investitsiyalarning milliy

xo'jalik rivojlanishida tutgan o'rni va roli, xorijiy investitsiyalar jalb etish samaradorligini oshirishning ayrim nazariy va amaliy masalalari MDH iqtisodchi-olimlari – Andrianov V.D., Blank I.V., Vasilev V.A., Glazev S.Yu., Komarov V.V., Leshenko M.I., Shumskiy N., Shishkov Yu. va boshqalar tomonidan keng o'rganilgan.

O'zbekiston Respublikasining jahon xo'jalik tizimi bilan integratsiyalashuvida, shuningdek tarmoqlarni modernizatsiyalashda xorijiy investitsiyalarning o'rni va roli, ularning milliy iqtisodiyot rivojlanishiga ta'siri, tashqi investitsiya siyosatini takomillashtirish yo'nalishlari respublikamiz iqtisodchi-olimlari – Vaxabov A.V, Alimov A.M., Bedrintsev A.K., Yo'ldoshev Sh., Isajonov A., Mo'minov N, Marpatov M., Orifxonov Sh., Razzoqov R.M., Rasulev A.F., Sirajiddinov N., Trushin E.F., Tursunov B.M., To'xliiev N.T., Shodiev R.H. va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Yuqorida nomlari zikr etilgan olimlarning investitsiya siyosatini takomillashtirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish samaradorligini oshirish masalalarini ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq etishga qo'shgan hissalarini e'tirof etgan holda shuni ta'kidlash lozimki, milliy iqtisodiyotni har tomonlama va izchil rivojlantirish faol investitsiya siyosatini yuritishni talab etadi. Investitsiya siyosati xar kanday davlatning iqtisodiy rivojlanishi va unda ishlab chiqarishni kengaytirishning eng asosiy yunalishlaridan biridir. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida milliy iqtisodiyot soxalariga tashki va ichki investitsiyalar okimini faollashtirish iqtisodiy yuksalishning yangi bosqichini boshlab beradigan asosiy omil hisoblanadi.

BMI tarkibining qisqacha tavsifi. Bitiruv malakaviy ishi tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTINI TUBDAN ISLOH QILISH VA RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSİYALARNING AHAMIYATI VA NAZARIY ASOSLARI

1.1. Investitsiyalarning mohiyati, turlari va unga ta'sir etuvchi omillar

Iqtisodiyotni modernizatsiyalashning asosiy iqtisodiy tushunchalari sifatida investitsiyalar tushunchasining bugungi xayotimizga keng va tez kirib kelishining o'zi uning mohiyati va ahamiyati, zarurligini ko'rsatib, uni ochib berishga bo'lgan zaruriyatni keltirib chiqaradi. Bu tushuncha o'zi bilan birga investitsiya loyihalari tushunchasi, investitsiya loyihalarini amalga oshirish va moliyalashtirish, ularning texnik iqtisodiy asoslanishi va ekspertizasi, loyihaviy tahlil, loyihalarning samaradorligini baxolash va monitoringi kabi bir qator yangi ko'plab tushuncha va iqtisodiy bilimlarni kashf etishi ularning bugungi iqtisodiy hayotimizda naqadar muhimligini anglab olishimizga sabab bo'lmoqda.

“Jadal va mutanosib iqtisodiy o'sish, chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishda faol va aniq yo'naltirilgan investitsiya siyosati yuritish eng muhim omil hisoblanadi.

2014 yilda iqtisodiyotimizga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 10,9 foizga o'sdi va AQSh dollari hisobida 14 milliard 600 million dollarni tashkil etdi. Bunda jami kapital qo'yilmalarning 21,2 foizdan ortig'i yoki 3 milliard dollardan ziyodini xorijiy investitsiya va kreditlar tashkil qildi. Ularning to'rt dan uch qismi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardir.”²

Jahon iqtisodiyotining, shu jumladan O'zbekiston iqtisodiyotining ham kelgusi taraqqiyoti, asosan, investitsiyalarga bog'liqligini bugungi kunda har bir bilim sohibi anglab etganligini nazarda tutsak, hozirgi kunda respublikamiz iqtisodiyotiga investitsiyalarni, xususan chet el investitsiyalarini kengroq jalb

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. “Xalq so'zi”. 2015 yil 17 yanvar.

etish ularning mamlakatimizda o'tkazilayotgan iqtisodiy isloxlarning samarali ijrosini ta'minlashning muxim asosiga aylanganligi bilan bog'likligini tushunib olish qiyin emas.³

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qulay investitsiya iqlimi shakllanmasdan va xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga faol jalb etmasdan turib, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlar jahon iqtisodiy xamjamiyatiga muvaffaqiyatli integratsiyalasha olmaydi.

Iqtisodiy adabiyotlarda va amaliyotda "investitsiya" nisbatan aniq va keng qo'llanilayotgan atama hisoblansa-da, ikkinchi tomondan, uning ko'p qirraligi va ziddiyatliligi nafaqat mamlakatimiz, balki xorijiy iqtisodiy adabiyotlariga ham xos.

"Investitsiya" atamasining mohiyatini aniqlashni iqtisodiy adabiyotlarda keng qo'llaniladigan ta'riflarni tahlil etishdan boshlash maqsadga muvofiq.

"Investitsiya" tushunchasi bir qator ma'nolarga ega bo'lib, bu qisqacha quyilma degan ma'noni bildiradi. Yoki buni foyda olish maqsvdida aktsiya, obligatsiya sotib olish, tovar ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan real aktivlarni sotib olish va ishlab chiqarish hamda intellektual va boshqa moddiy boyliklar uchun sarflanishi tushuniladi, ya'ni investitsiyalar har qanday vosita bo'lib, pulning qiymatini saqlaydi, uning qiymatini ko'paytiradi, va ijobiy daromad olishni ta'minlaydi.

Demak, investitsiya so'zi kengroq ma'noni anglatib, bunga qo'shimcha ravishda o'zlashtirmoq degan ma'noni ham berar ekan"³.

Investitsiya huquqi sohasida ilmiy izlanishlar olib borgan rus olimi A.G.Bogatirev ham yuqoridagi nuqtai nazarga yaqin pozitsiyani egallaydi.⁴ Aynan xarajatlarning ishlab chiqarishga xosligi va uzoq muddatlilik ko'p hollarda mualliflar tomonidan investitsiyalar va kapital qo'yilmalar o'rtasida tenglik ishorasini qo'yilishiga sabab bo'ladi.

³ Jo'raev A.S, Xo'jamqulov D.Yu., Mamatov B. «Investitsiya loyihalari tahlili» Toshkent «Sharq»2007-52-b .

³ Karimov N.G', Xojimatov R.X. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish.Darslik. - TDIU, 2011-B. 31

⁴ Богатирев А.Г. Инвестиционное право. М.: Российское право, 2008.-272- с.

Shuni ta'kidlash lozimki, Evropacha uslub "investitsiya" atamasini qimmatli qog'ozlarga kiritilgan uzoq muddatli qo'yimalarga nisbatan ham qo'llanilishiga yo'l qo'yadi. Ammo "faqat korporatsiyani boshqarish imkoniyatini o'zida aks ettirgan holatdagina bunday kapital qo'yish investitsiya bo'lishi mumkin".⁵

Amerikancha uslub ham "investitsiya" va "kapital qo'yimalar" atamalari o'rtasida tenglik ishorasini qo'yadi va uning iqtisodiy mazmunida ko'chmas mulkka qilingan qo'yimalarga ustuvorlik beradi.

Investitsiya atamasi to'g'risida so'z yuritganda MDH mamlakatlari iqtisodiy adabiyotlarida keng qo'llaniladigan bir qator ta'riflarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Masalan, rus iqtisodchi-olimi Kovalev V.V. - fikriga ko'ra, "investitsiyalar — xalq xo'jaligining turli tarmoqlaridagi korxonalarga uzoq muddatli kapital qo'yishdir (mamlakat ichida yoki xorijda)"⁶. Ko'rinib turibdiki, ushbu ta'rifda investitsiyalarning maqsadi va sohalari o'z aksini topmagan. Shu bilan birga ushbu ta'rifda investitsiyalar uzoq muddatli kapital qo'yimalarga tenglashtirilmoqda.

Investitsiyalar — asosiy va aylanma kapitalni qayta tiklash va ko'paytirishga, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga qilingan sarflarning pul shaklidagi ko'rinishidir. U pul mablag'lari, bank kreditlari, aktsiya va boshqa qimmatli qog'ozlar ko'rinishida amalga oshiriladi.

Lukinov V.A. yuqoridagi ta'rifga nisbatan bir muncha to'laroq va aniqroq ta'rifni keltiradi: "investitsiyalar — foyda olish maqsadida mamlakat ichkarisida yoki xorijda xalq xo'jaligining turli tarmoqlariga davlat va xususiy kapitalining uzoq muddatli moliyaviy qo'yimalaridir"⁷.

Mazkur ta'rifda investitsiyalarning maqsadi ko'rsatilgan bo'lsada, uning ijtimoiy samarani ta'minlashdagi roli ko'rsatilmagan. Shuningdek, investitsiyalar faqat moliyaviy qo'yimalar sifatida tavsiflangan, xolos.

⁵ Шарп У., Александер Г., Бейли Дж. Инвестиции: Пер. с англ. - М.ИНФРА-М, 2007. - с.28.

⁶ Ковалев В.В. Методы оценки инвестиционных проектов.-- М.: Финансы и статистика, 2008. — 144с.

⁷ Лукинов В.А. Проблемы стабилизации и развития инвестиционно-строительной сферн.-- М.: 2008. — 228с.

Vaholanki, mashinalar, texnologiyalar, litsenziyalar ham investitsiyalar bo'lishi mumkin.

Rossiyalik iqtisodchilar A.Yu.Andrianov, S.V. Valdaytsev ham investitsiyalarga shunga yaqin ta'rif keltiradilar: "Investitsiyalar – davlat kapitali va xususiy kapitalning foyda olish maqsadida mamlakat . ichkarisida yoki xorijiy mamlakat iqtisodiyotiga uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalaridir"⁸. Ko'rinib turibdiki, ushbu ta'rifda investitsiyalarning tarkibi keltirilmagan va bu erda ham investitsiyalarni moliyaviy qo'yilmalar sifatida ta'riflash ustuvor o'ringa ega.

"Investitsiyalar foyda (daromad) olish yoki ijtimoiy yoxud iqtisodiy samaraga erishish maqsadida turli xil ishlab chiqarish, tijorat, ijtimoiy, ilmiy, madaniy va boshqa soha dasturlari va loyihalarini amalga oshirishga kiritiladigan pul, mulk va intellektual boyliklarmajmuasidan iborat"⁹, - deb ta'rif beradi investitsiyalar tahlili sohasida ilmiy izlanishlar olib borgan rossiyalik iqtisodchi O.Sinitsin.

Mazkur ta'rif garchi keng qamrovli bo'lsa-da, investitsiyalarning mohiyatini to'liq va aniq ochib bera olmaydi. Bunda investitsiyalar turli xil dasturlarni va loyihalarni amalga oshirish uchun sarflanadigan pul, mulk va intellektual boyliklar majmuasidan iboratligi ta'kidlanadi. Qimmatli qog'ozlarga qilinadigan uzoq muddatli qo'yilmalar, texnologiyalar sotib olish uchun sarflanadigan mablag'lar va boshqa muhim investitsiya turlari e'tibordan chetda qolgan.

Quyidagi ta'rifda investitsiyalar va kapital qo'yilmalar o'rtasiga tenglik ishorasi qo'yilgan: "Investitsiyalar (kapital qo'yilmalar) — xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta'minlashga yo'naltirilgan moddiy, mehnat va pul resurslari xarajatlari yig'indisidan iborat"¹⁰.

⁸ Инвестиции: учеб. /А.Ю. Андрианов, С.В. Валдайцев, П.В. Воробев и др.— 2-е изд., перераб. и доп. — М.:ТК Велби, Изд-во Проспект, 2008. — с58.


⁹ Синицин О. Инвестиционный анализ. Теория выбора // Инвестиции в России. № 1-2, 2007

¹⁰ Шапиров,Д. и др. Управление проектами. — СПб.: "Два Три", 2006. - 17 с.

Bizning fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida" gi qonunida keltirilgan ta'rif investitsiyalarning iqtisodiy-huquqiy tabiatini to'liq ochib beradi: "investitsiyalar - iqtisodiy va boshqa faoliyat ob'yektlariga kiritiladigan moddiy va (nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar; investitsiya faoliyati - investitsiya faoliyati sub'yektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq harakatlari majmui"¹¹.

Ushbu ta'rif investitsiyalarning ham real ham moliyaviy turlari mazmunini qamrab oladi.

Investitsiyalar quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin (1-rasm).



1-rasm. Investitsiyalar tasniflanishi¹²

Mablag'larni kiritish ob'yektiga ko'ra investitsiyalarni ikki turga ajratish mumkin: moliyaviy investitsiyalar va real investitsiyalar.

¹¹ 11"O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi. 1998 y.24 dekabr, 2-modda /NORMA.

¹² "Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish" fanidan ma'ruza matni. 2009 yil 36-bet.

Moliyaviy investitsiyalar - mablag'larni moliyaviy aktivlarga kiritishdir. Moliyaviy investitsiyalar aktsiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar shaklida qatnashishi mumkin.

Uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar shaklidagi investitsiyalar deganda davlat qimmatli qog'ozlariga (obligatsiyalar va boshqa qarz majburiyatlari), boshqa korxonalarning qimmatli qog'ozlari va Nizom kapitaliga kiritilgan mablag'lar, shuningdek, mamlakat ichkarisida va xorijda korxonalarga taqdim etilgan qarz mablag'lari tushuniladi.

Real investitsiyalar deganda barcha turdagi (ishlab chiqarish va noishlab chiqarish) nomoliyaviy aktivlarni sotib olish maqsadida kiritilgan mablag'lar tushuniladi.

Investitsiyalarning real va moliyaviy turlarga ajratilishi ularni tasniflashtirishdagi asosiy belgilardan hisoblanadi. Investitsiyalash jarayoniga ishtirok etish xarakteriga ko'ra investitsiyalar bevosita va bilvosita investitsiyalarga bo'linadi.

Bevosita investitsiyalarda investor investitsiyalash ob'yektini tanlash va mablag'lar kiritishga bevosita ishtirok etadi. Bevosita investitsiyalarni odatda investitsiya ob'yekti to'g'risida aniq ma'lumotga ega, investitsiyalash mexanizmi bilan yaqindan tanish, shuningdek bu sohada katta tajribaga ega bo'lgan maxsus tayyorgarlikka ega investorlar amalga oshiradilar.

Bilvosita investitsiyalar investitsion yoki boshqa moliyaviy voitachilar orqali amalga oshiriladi. Investitsiyalash muddatiga ko'ra investitsiyalar qisqa muddatli va uzoq muddatli investitsiyalarga bo'linadi.

Qisqa muddatli investitsiyalar bir yildan ortiq bo'lmagan muddatga kapital kiritishdir. Masalan, qisqa muddatli depozit qo'yilmalari, qisqa muddatli jamg'arma sertifikatlarini sotib olish va h.k.

Uzoq muddatli investitsiyalar ishlab chiqarish uchun mo'ljallanmagan uzoq muddatli foydalanish ko'zda tutilgan aktivlarni barpo etish, ularni kengaytirish va sotib olishga sarflangan kapital mablag'lardir.

Mulk shakliga ko'ra investitsiyalar quyidagi turlarga bo'linadi: xususiy, davlat, xorijiy va qo'shma investitsiyalar.

Xususiy investitsiyalar fuqarolar hamda mulkchilikning nodavlat xo'jalik yuritish sub'yektlari tomonidan mablag'lar kiritishdir.

Davlat investitsiyalari - markaziy, mintaqaviy hamda mahalliy hukumat va boshqaruv organlari tomonidan byudjet, byudjetdan tashqari fondlar hamda qarz mablag'lari hisobiga, shuningdek, davlat korxonalari tomonidan ularning o'z va qarz mablag'lari hisobiga amalga oshiradigan qo'yilmalaridir.

Xorijiy investitsiyalar daromad olish maqsadida tadbirkorlik va boshqa faoliyat turlariga xorijiy investorlar tomonidan kiritiladigan barcha turdagi mulkiy va intellektual boyliklar majmuasidir. Xorijiy investorlar sifatida xorijiy yuridik va jismoniy shaxslar, davlatlar va xalqaro tashkilotlar qatnashishi mumkin. Xorijiy investitsiyalarning bevosita, portfel va boshqa turlari mavjud.

Bevosita xorijiy investitsiyalar xalqaro investitsiya faoliyatining muhim toifasi bo'lib, bir mamlakat xo'jalik yuritish birligining boshqa mamlakatdagi korxonaga barqaror ta'sir o'tkazishga intilishini o'zida aks ettiradi. Barqaror ta'sir o'tkazish deganda bevosita investor va ko'rsatilgan korxona o'rtasida uzoq muddatli munosabatlar o'rnatish, shuningdek, ushbu korxonani boshqarishda investorning sezilarli roli tushuniladi.

Bevosita xorijiy investitsiyalar Nizom kapitaliga badal, kreditlar va boshqa shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Bevosita investitsiyalash korxonasi korporativ va nokorporativ birlik sifatida aniqlanadi. Unda investorga kamida 10 foiz oddiy aktsiya yoki aksionerlar ovozi (korporativ korxonalar uchun) yoki shunday ishtirokning ekvivalenti (nokorporativ korxonalar uchun) tegishli bo'ladi.

Shunday qilib, bevosita investitsiyalash korxonasiga investor- rezident 50 foizdan ko'proq aktsiya yoki ovozga ega bo'lgan sho'ba-korxona yoki kompaniya, bevosita xorijiy investor ulushi 50 foiz va undan kam bo'lgan asotsiatsialashgan korxona, to'liq yoki qisman investor tasarrufida bo'lgan va bevosita investorga tegishli bo'lgan nokorportativ korxona kiradi.

Portfel xorijiy investitsiyalar deganda investitsiyalarning aktsiyalarga, boshqa qimmatli qog'ozlarga kiritilishi tushuniladi. Qimmatli qog'ozlar jumlasiga aktsiyalardan tashqari obligatsiyalar, bonlar, veksellar, depozit sertifikatlari, bank aktseptlari va qarz yozilmalari kiradi.

Bevosita va portfel investitsiyalarni bir-biridan ajratish uchun amaliyotda quyidagi mezondan foydalaniladi: agar investor 10 va undan ortiq foiz oddiy aktsiyalarga ega bo'lsa, bunday investitsiyalar bevosita investitsiyalar hisoblanadi.

Boshqa xorijiy investitsiyalarga bevosita va portfel investitsiyalar jumlasiga kirmaydigan investitsiya turlari kiradi. Masalan, savdo kreditlari, shuningdek, xalqaro moliyaviy tashkilotlardan olinadigan kreditlar, bank qo'yilmalari va boshqalar.

Mintaqaviy belgisiga ko'ra investitsiyalar mamlakat ichkarisidagi va xorijdagi investitsiyalarga bo'linadi.

"Mamlakat ichkarisidagi (ichki) investitsiyalar deganda mamlakat hududida joylashgan ob'yektlarga investitsiya mablag'larining kiritilishi tushunilsa, xorijdagi investitsiyalar (tashqi) mamlakat hududidan tashqarisida joylashgan ob'yektlarga investitsiyalarni joylashtirish tushuniladi"¹³.

Yuqorida keltirilgan tasniflashtirish investitsiyalarning eng muhim belgilarini o'zida aks ettirib, zaruriyat tug'ilganda yanada aniqlashtirilishi va ilmiy, tadqiqot, tadbirkorlik maqsadlaridan kelib chiqqan holda yanada kengaytirilishi mumkin.

Investitsiyalar darajasi yalpi ichki mahsulot hajmiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi, milliy iqtisodiyotdagi ko'plab mutanosibliklar uning o'sish sur'atlariga bog'liq. Investitsiyalar mamlakat miqyosida kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta'minlashni yaxshilaydi.

Investitsiya jarayoni va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilishda investitsiya multiplikatori muhim ahamiyatga ega. Uni umumiy

¹³ Imomov N.N. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish.(O'quv qo'llanma) —T-TDIU, 2011.,44-6.

daromadlarning o'sishi va qo'shimcha kapital qo'yilmalar o'rtasidagi nisbat sifatida ifodalash mumkin.

Investitsiya multiplikatori investitsiyalarning daromadlarning o'sishiga ta'sirini ifodalaydi. Ushbu uslub dastlab R.F. Kan tomonidan mablag'lardan foydalanish multiplikatori ¹⁴ sifatida taklif qilingan bo'lib, bu g'oya ushbu olim tomonidan amalga oshirilgan kuzatishga asoslangan. Ushbu kuzatish natijalariga ko'ra, mablag'lardan birlamchi qo'shimcha foydalanishning muayyan hajmi taqsimlangan daromadlar va ular bilan bog'liq xarajatlarning asta-sekinlik bilan o'sishi natijasida ulardan foydalanishning ikkilamchi shakllarini keltirib chiqaradi. Mazkur g'oya keyinchalik Keyns tomonidan bir tizimga keltirilib, koeffitsient - investitsiya multiplikatori ko'rinishida taqdim etildi¹⁵.

Uning mohiyati quyidagicha: kapital qo'yilmalarga qo'shimcha xarajalar daromadlar to'lqinini vujudga keltiradi. Bu daromadlar hajmi ularni oluvchining iste'molga moyillik darajasi bilan belgilanadi.

Ushbu nazariy qarashlarning O'zbekistonning investitsiya sohasidagi hozirgi holatini tavsiflashdagi dolzarb jihatlarini alohida ta'kidlash lozim. Haqiqatdan ham, iqtisodiy islohotlarning dastlabki davrida O'zbekistondagi investitsiya taqchilligining muhim sabablaridan biri bir tomondan, davlat investitsiyalari hajmining qisqarishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, xususiy investitsiyalar oqimi uchun zaruriy shart-sharoitlarni ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatgan pirovard mahsulotga bo'lgan ichki talabning keskin qisqarishi bilan bog'liq.

Shunday qilib, asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar tizimida investitsiya jarayonlari asosiy o'rinni egallaydi. Bu esa, o'z navbatida, davlatning kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni amalga oshirishni tartibga solish sohasidagi asosiy faoliyat yo'nalishlarini belgilab beradi.

¹⁴ Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег: Избранное., М.: Эксмо, 2007 г. с.173.

¹⁵ Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег: Избранное., М.: Эксмо, 2007 г. с.173.

1.2. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati va iqtisodiyotga jalb qilishning ob'yektiv zarurligi

O'zbekiston milliy iqtisodiyotining rivojlanishida iqtisodiy tarmoqlarning kengayishi, mulkchilik shakllarining ortishi va qo'shma korxonalarning salmog'ini o'sib borishiga katta investitsiyalar jalb qilinmoqda. Yonilg'i-energetika majmuasi, mashinasozlik, metallurgiya, kimyo majmuasi, engil sanoat, sanoatning oziq-ovqat va qayta ishlash tarmoqlariga safarbar etilgan yirik miqyosdagi investitsiyalar import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishni barpo qilish va yangi mahsulotlar turlarini o'zlashtirish bilan bog'liq bo'ladi. Keyingi yillarda transport majmuasiga, kommunikatsiyalarga, ijtimoiy sohaga, shu jumladan ta'lim sohasiga investitsiyalar tobora ko'payib bormoqda. Bunday tuzilmaviy o'zgartirishlar jahon xo'jaligiga kirib borish, mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishish imkoniyatlarini yaratadi.

Xususan, 2014 yilning 1- yarim yilligida meditsina sanoati korxonalari tomonidan 249,0 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilib, bu ko'rsatkich 2013 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 112,8%ni tashkil etdi.

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida, tarmoqning yirik korxonalari tomonidan, o'tgan yilning tegishli davri ko'rsatkichlariga nisbatan, tarkibida gormon yoki antibiotiklar bo'lmagan dori vositalari ishlab chiqarish – 5,8%ga, chakana savdoga mo'ljallab qadoqlangan boshqa turdagi antibiotiklardan tarkib topgan dori vositalari ishlab chiqarish – 32,5%ga, provitaminlar, vitaminlar va ularning hosilalari – 2,4 martaga oshirildi.

Shu bilan birga, farmatsevtik moddalar bilan qoplangan yoki to'yintirilgan momiq paxta, doka va shu kabi turdosh materiallar ishlab chiqarish hajmining 2,2 martaga o'sishi kuzatildi.¹⁶

Iqtisodiyotni texnik-iqtisodiy modernizatsiyalash, sanoatning ustuvor tarmoqlarini yanada rivojlantirish, ishlab chiqarish samaradorligini o'stirish,

¹⁶ 2014 yil yanvar-iyun oylarida respublikada meditsina sanoatining rivojlanishi yakunlari. Davlat statistika qo'mitasi axborot xizmati.

tashqi va ichki bozorlardagi talablarga javob beradigan raqobatbardosh tovarlarni ko'paytirish va yangiliklarni yaratish hisobiga amalga oshirilishini taqozo etadi.

Hozirgi davrda "investitsiyalar" tushunchasi, aksariyat hollarda keng ma'noda ishlatilmoqda. Iqtisodiy fanlarning turli tarmoqlarida, amaliy faoliyatning turli yo'nalishlarida investitsiyalashning maqsadlari, sohalar xususiyatlari, safarbar etilish ob'yektlari, harakat yo'nalishlaridan kelib chiqib va ahamiyatiga qarab "investitsiyalar" tushunchasi o'ziga xos ma'noda ishlatiladi. Moliyaviy nuqtai nazardan ularning mazmuni va mohiyatini aniq belgilash muhim vazifa hisoblanadi. Faqat kapitalni yo'qotish riski mavjud bo'lgan pul shaklidagi investitsiyalar yangi aktivlarni vujudga keltiradi.

Investitsiyalarning mulkiy shaklidagi moddiy va nomoddiy ne'matlar va ularga bo'lgan huquqlarni iqtisodiy va boshqa faoliyatlarga jalb etish esa, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalarida, investitsiyalar evaziga barpo etilgan aktivlarni ishlatishdan dalolat beradi. Moliya nazariyasiga ko'ra, investitsiyalar bo'lajak natijalarni qo'lga kiritish maqsadida, mohiyatan hozirgi xarajatlarni bildiradi. Investitsiyalar noaniqlik ehtimoli bo'lgan va kelgusida kutilayotgan qiymatga kapitalning aniq bugungi qiymatini almashtirishdan iboratdir. Buning dalili sifatida investitsiyalarning safarbar etilishida ularning ongli ravishda aniq va noaniq bo'lgan risklar bilan bog'lanishini keltirish mumkin.

Ko'pgina hollarda "investitsiyalar" tushunchasi iqtisodiy va boshqa faoliyat ob'yektlarini kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar tarzida ta'riflanadi. "Chet el investitsiyalari" tushunchasiga ta'rif berishda ham xuddi shu ma'no nazarda tutiladi, lekin bu o'rinda ularning qonuniy huquqliligi va maqsadiga ko'proq urg'u beriladi.

O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi qonunida O'zbekiston Respublikasi hududida chet ellik investorlar tomonidan qonun xujjatlariga zid bo'lmagan tadbirkorlik va boshqa faoliyat turlari ob'yektlariga aksariyat foyda (daromad) olish maqsadlarida kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlarning jami turlari, shu

jumladan, intellektual mulkka bo'lgan huquqlar, shuningdek chet el investitsiyalaridan olinadigan har qanday daromad chet el investitsiyalari sanaladi.

Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, investitsiyalarning harakatidan kelib chiqib zamon va makonining almashtirilishi va o'z iqtisodiyotga kirib borishi namoyon bo'ladi. Investitsiyalarning turli shakllarda o'zga iqtisodiyotlarga kirib borishi yangidan investitsiya faoliyatini yo'lga qo'yishda, ularning turi va shakllaridan qat'iy nazar, yangitdan safarbar etilishini va bog'lanishini bildiradi.

Odatda makroiqtisodiy darajada investitsiyalar deyilganda ishlab chiqarish vositalarini takror ishlab chiqarishga, yangi uy-joy binolarini, tovar zahiralarini ko'paytirish va shu kabilarga yo'naltirilgan xarajatlarning bir qismi tushuniladi.

Shunday qilib, bu o'rinda yalpi ichki mahsulotning joriy davrda iste'mol qilinmagan, kapitalni o'stirishga yo'naltirilgan qismi nazarda tutiladi. Ayrim iqtisodchilar esa investitsiyalar - bu pul mablag'lari sarflari bo'lib, daromadning joriy iste'molga emas, balki pirovard maqsadi kelajakda yanada yuqoriroq daromad yoki ijtimoiy samara topishdan iborat bo'lgan jami ijtimoiy yoki yakka kapitalni takror hosil qilish uchun foydalaniladigan qismi deb qaraydilar.

Ishlab chiqarish nazarisida va mikrodarajada "investitsiyalar" deyilganda yangi kapitalni, shu jumladan ishlab chiqarish vositalari va intellektual potentsialni takror ishlab chiqarishni tashkil qilish jarayoni nazarda tutiladi.

Umuman olganda, iqtisodiyotda investitsiyalar kapitalning jamg'arilish jarayonidir. Moliya nazariyasida investitsiyalar real yoki moliyaviy aktivlarni olishdan dalolat beradi va kelajakda kutilgan daromadlarga erishish maqsadlarida qilingan hozirgi xarajatlardan iboratdir. Boshqacha aytganda investitsiyalar hozirgi muayyan kapital qiymatini kutiladigan, kelajakdagi noaniq qiymatga almashishni bildiradi.

Shundan qilib, zamonaviy moliya nazariyasida investitsiyalar bugungi muayyan qiymatni kelajakdagi ehtimoli bo'lgan noaniq qiymatga almashtirishni

anglatadgi.¹⁷ So'nggi ta'rifda investitsiyalarning mazmuni va mohiyatining asosiy mezonlari tarzida kelgusi manfaatlar hamda investitsiyalar bilan bog'liq risklar ta'kidlab ko'rsatilgan. Masalan, P. Masse investitsiyalash bugungi ehtiyojlarni qondirishni investitsiya ne'matlari yordamida kelajakda kutiladigan qondirishga almashtirish harakatidan iborat deb hisoblaydi¹⁸.

Bu esa investitsiyalar faqat ishlab chiqarishni ko'paytirish, qoplash, kengaytirish, yangilash va texnika bilan qayta qurollantirishga yoki asosiy kapitalga yo'naltiriladi degan fikrlarni bildirimoqda. Chindan ham, harakatlar yo'nalishlari nuqtai nazardan almashtirish, kengaytirish, qurollantirish, fondlar tarkibini yangilash va boshqalarni ko'rish mumkin. Shu ma'noda, bu fikrning tasdig'iga dalil sifatida investitsiyalarning sof va eskirishni qoplash investitsiyalariga tasniflanishi, ularning jamlanib yalpi investitsiyalarni hosil qilishini keltirish mumkin.

Bular bilan bir qatorda, investitsiyalar boshqa aktivlarni, xususan, nomoddiy, aylanma aktivlarni shakllantirishga yo'naltirilishini ham nazardan soqit qilmaslik kerak. Shu munosabat bilan ularni safarbar etish va bog'lash ob'yektlariga mol-mulk, moliyaviy vositalar, nomoddiy va intellektual boyliklar kiritilgan.

Bevosita investitsiyalar esa iqtisodiy sub'yektning ustav kapitaliga daromad topish va xo'jalik yurituvchi sub'yektni boshqarishda ishtirok etish huquqini olish maqsadlarida kiritiladigan investitsiyalardir. Ular resurslarni yangi loyihalarga jalb qilish, zamonaviy texnikalarni kiritish, moliyaviy vositalarni xarid etish, ya'ni aktsiyalarni sotib olish, qo'shilish, qo'shib olish, mavjud kapitalni xarid etish va boshqa yo'llar orqali amalga oshiriladi.

Portfel investitsiyalar moliyaviy resurslarni diversifikatsiya asosida portfelni shakllantirish bilan bog'liq va investorning aniq bir investitsiya maqsadlariga yoki uyg'unlashgan maqsadlariga erishish uchun xizmat qiladigan

¹⁷ Мертенс А.В. Инвестиции: Курс лекции по современной финансовой теории - Киев, Киевское инвестиционное агентство, 1997.

¹⁸ Золотогоров В.Г. Инвестиционное проектирование : Учеб.пособие. -Мн.: ИП «Экоперспектива»,1998.

turli boyliklarning bir butun qilib yig'ilgan majmuidan iborat. Annuitet investorga muntazam ravishda belgilangan muddatlarda muayyan daromad keltiruvchi investitsiyalardir.

Investitsiyalash sub'yektlari nuqtai-nazaridan investitsiyalarni xususiy, korporativ va davlat investitsiyalariga ajratish mumkin. Investitsiyalarni mazmun va mohiyatini aniqlovchi asosiy mezon sifatida, ularning makon va zamonda harakatda bo'lishidan kelib chiqib, kelgusidagi manfaatlar va ularga erishish bilan bog'liq bo'lgan risklar tashkil etadi.

Investitsiyaning mohiyatini yanada to'laroq ochib berish uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonuniga muvofiq ularning tasnifini, shuningdek, bu masala bo'yicha iqtisodiy adabiyotlarda mavjud bo'lgan qarashlar va nuqtai nazarlarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Respublikamizning bir guruh iqtisodchi-olimlari tomonidan "investitsiya"ga berilgan ta'riflari o'zgacha ma'noda bo'lib, ularning fikricha,

"investitsiya deganda daromad olish maqsadida yuridik va jismoniy shahslarning barcha turdagi mulkiy, moliyaviy intellektual boyliklarni iqtisodiyotni turli tarmoqlariga uzoq muddatlarga yo'naltirish va shu bilan ishlab chiqarishni kengaytirish hamda axoli talablarini qondirish tushuniladi" deb ta'riflashgan.¹⁹

Investitsiya tushunchasiga berilgan ushbu ta'riflarni tahlil qilar ekanmiz, bu ta'rif hozirgi iqtisodiyotning jadal rivojlanishi davrida bir oz eskirganini sezamiz. Bizningcha, investitsiyalar nafaqat uzoq muddatli qo'yilmalar tariqasida, shuningdek, qisqa va o'rta muddatli quyilmalar ko'rinishiga ham egadir. N.H. Haydarov – "investitsiya — bu mulk shaklidan qat'iy nazar, tadbirkorlik asosida faoliyat yuritayogan jismoniy va yuridik shaxslar yoki davlatning iqtisodiy va ijtimoiy samara olish maqsadida o'z ixtiyoridagi moliyaviy, moddiy va intellektual boyliklarni qonun doirasida bo'lgan har qanday tadbirkorlik ob'yektiga sarflashidir" deb ta'riflaydi. Bizning

¹⁹ Н.Г. Каримов "Иностранные инвестиции в экономику Республики Узбекистан и их финансовое обеспечение" автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Т.: 1998, 6 стр.

nazarimizda, investitsiyalarga berilgan bu ta'rif boshqa mavjud ta'riflarga nisbatan olganda hozirgi davr iqtisodiyotidan kelib chiqib yaratilgan deb hisoblash mumkin. Lekin mazkur ta'rifni ham to'ldirish kerak.

Professor D.G'. G'ozibekovning fikricha - "investitsiyalar aniq va noaniq, lekin ehtimoli bor risklar ostida kapitalni muayyan jarayonlarga, muayyan vaqtga bog'lash bo'lib, uning hozirgi qiymatini saqlash, kapitallashtirish va jamg'arish maqsadiga qaratilgan"²⁰.

Investitsiyalar uchun zaruriy moliyaviy manbalarni topish iqtisodiy o'sish shartiga aylangan. Bu esa birinchi nabvatda iste'mol va jamg'arma nisbatiga bog'liq. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tishda, o'z modelini amalga oshirayotgan O'zbekiston investitsiyalarni moliyalashtirishning samarali usullari, mexanizmlari va vositalarini izlashda davom etmoqda. Iqtisodiyotning barcha mulkchilik sektorlari doirasida investitsiya faoliyatining kuchayishi investitsiya loyihalarini baholash va tanlovni o'tkazishni takomillashtirish, investitsiyalash uchun zarur bo'lgan ishonchli moliyaviy manbalarni izlab topish bilan bog'liq bir qator muammolarni hal qilish zaruriyatini ko'ndalang qilib qo'yadi. Mamlakat investitsiya faoliyatida ayniqsa xorijiy investitsiya ishtiroki kuchayishi bilan bu masalalar ahamiyati oshib boradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov bevosita xorijiy investitsiyalar to'g'risida fikr bildirib: "Bir oddiy haqiqatni yaxshi tushunib olish kerakki, O'zbekistonga kiritilayotgan investitsiyalar, ayniqsa, to'g'ridan-to'g'ri kelayotgan sarmoyalar oqimi har bir kishi, umuman jamiyat hayoti uchun suv va havodek zarur"²¹ deb baholagan. Investitsiya faoliyatida burilishlar, ta'kidlangan vazifalarni echish investitsiyalashning davlat mexanizmini erkinlashtirib borish va bozor mexanizmlari qo'llaniladigan sohalarni kengaytirish, investitsiyalashni o'z jamg'armalari hisobidan ta'minlashning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy qilish, loyihaviy, korporativ moliyalashtirish, lizing va boshqa

²⁰G'ozibekov D.G' «Investitsiyalarni moliyalashtirish muammolari» mavzusidagi iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. T., 2002, 16-6.

²¹Karimov I.A. Iqtisodiyotni erkinlashtirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanishimiz- bosh yo'limiz. "Xalq so'zi", 15 fevral 2002 yil 3-bet

shularga o'xshash yangi usullardan foydalanish sohalarini kengaytirishni talab qiladi.

Bir davlatdan boshqa davlatga daromad olish uchun yo'naltirilgan har qanday shakldagi mulkni to'la qonli ravishda xorijiy investitsiya deyishimiz mumkin. Ammo shunday mulk shakllari borki, biz ularni xorijiy investitsiya deya olmaymiz. Masalan, elchixona chet davlat mulki hisoblanadi, yoki xorijiy fuqaro shaxsiy uy sotib olsa bu xorijiy shaxs mulki hisoblanadi, lekin xorijiy investitsiya bo'la olmaydi.

Xorijiy investitsiyalar - bu chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutloq boshqa davlat iqtisodiyotining, tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklardir. 1998 yil 30 aprelda qabul qilingan "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 3-moddasida "Chet ellik investorlar asosan daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat ob'yektlariga qo'shadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlar, shu jumladan, intellektual mulkka doir huquqlar, shuningdek chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromad O'zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalari deb e'tirof etiladi" deb ta'kidlanadi.

Xorijiy investitsiyalarining umumiy ta'rifi F. Xeniusning 1947 yil AQShda chop etilgan tashqi savdo lug'atining 2-nashrida quyidagicha: "Xorijiy investitsiyalar – bu bir mamlakat hududidan ikkinchi mamlakat hududiga kiritilgan, eksport qilingan investitsiyalar ta'rif berilgan ²² . Chet el investitsiyalari deyilganda chet mamlakatlarning milliy iqtisodiyotga moddiy, moliyaviy va nomoddiy ko'rinishidagi muddatli qo'yilmalarning barcha shakllari tushuniladi. Bu quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin: qo'shma korxonalarni tashkil qilishda o'z ulushi bilan qatnashish, xorijiy

²² Dictionary of Foreign Trade. by F.Henus Sec/ Ed. N4.,1947, P.387.

sarmoyadorlarga to'la tegishli bo'lgan korxonalarni barpo etish, xorijiy shaxslar tomonidan qimmatli qog'ozlarni, shuningdek, zayom va kreditlar olish.

Xorijiy investitsiyalar ichki investitsiyalardan farqli holda tashqi moliyalashtirish manbaiga kiradi. Xorijiy investitsiyalar qo'shma korxonalar tashkil etish, xorijiy investorlarga to'liq tegishli bo'lgan korxonalarni yaratish, xususiylashtirishda qatnashish, xorijiy sheriklar bilan bank tuzish, qimmatli qog'ozlarni sotib olish, er va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish huquqiga ega bo'lish, erkin iqtisodiy hududlarda faoliyat olib borishda juda katta va muhim ahamiyatga egadir.

Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikning muntazam ravishda kengaytirib borilishi, uzoq muddatli investitsiyaviy qarzlarning va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning jalb etilishi O'zbekistondagi Inqirozga qarshi choralar dasturida etakchi o'rin tutadi.

Quyidagi raqamlar bu to'g'rida eng ishonchli ma'lumotlarni beradi: 2009-2014 yillarda modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlashga qaratilgan muhim loyihalarni amalga oshirish bo'yicha ishlab chiqilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan 2009 yilning 12 martida tasdiqlangan dastur doirasidagi investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirish uchun xalqaro moliyaviy tashkilotlar, ikki tomonlama shartnomalar va etakchi xorijiy kompaniyalarning umumiy miqdori 22 milliard dollardan ziyod kreditlari va investitsiyalarni jalb etish ko'zda tutilgan edi.

Hozirgi kunda umumiy qiymati 19 milliard dollardan ortiqroq bo'lgan 80 dan ziyod loyihalarni investitsiyalash va moliyalash bo'yicha aniq manbalar belgilanib, xorijiy sheriklar bilan shartnomalar imzolandi. Bu sheriklar orasida Osiyo Taraqqiyot banki (OTB), Jahon banki (JB), Islom Taraqqiyot banki (ITB) va boshqa xalqaro moliyaviy institutlari alohida o'rin tutadi. Uzluksiz makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy o'sishning yuksak sur'atlarini ta'minlash, tuzilmaviy o'zgarishlarni izchil amalga oshirib borish, shuningdek, iqtisodiyotni hamda uning tayanch va ijtimoiy infratuzilmalarini bosqichma-bosqich modernizatsiyalashtirib borishni ta'minlashga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiy

strategiyasi xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik ko'lamining yanada jadal o'sib borishiga zamin yaratadi.

Umuman olganda, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida O'zbekiston iqtisodiyotining muvaffaqiyatli va barqaror rivojlanishining asosida chuqur o'ylangan, O'zbekistonga xos hususiyatlar to'la hisobga olingan iqtisodiy islohotlarning o'ziga xos va o'zimizga mos modeli mujassam.

Ushbu dasturning izchil amalga oshirib kelinishi mamlakatimiz iqtisodiyotini diversifikatsiyalashgan, jahon bozoriga raqobatbardosh, keng darajada xilma-xil tayyor mahsulotlar bilan chiqayotgan, uzluksiz yuqori sur'atlardagi iqtisodiy yuksalishga moyil, jiddiy rasmiy omillar va benuqson kredit tarixiga ega bo'lgan zamonaviy iqtisodiyotga aylanishini ta'minlaydi.

Bu, o'z navbatida, inqirozning nafaqat salbiy oqibatlarini yumshatishga, balki O'zbekiston iqtisodiyotini yanada kuchli va bardoshli iqtisodiyotga aylantirishga qaratilgan inqirozga qarshi choralarning keng miqyosli kompleks dasturini ishlab chiqish hamda uni tezroq amalga oshirish imkonini berdi. Bunda esa eng hal qiluvchi vazifa — xorijiy investitsiyalar va uzoq muddatli investitsiyaviy kreditlarni jalb etish evaziga iqtisodiyotning ishlab chiqarish asosini tubdan modernizatsiyalash, uni texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashdan iborat.

Bozor iqtisodiyoti islohotlarini chuqurlashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va mulk huquqini himoya qilishni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilash hamda hajmi tobora ortib borayotgan xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

1-jadval.

**O'zbekiston Respublikasining 2012-2014 yillarga mo'ljallangan
davlat investitsiya dasturi doirasida o'zlashtirilgan to'g'ridan-
to'g'ri xorijiy investitsiyalar va Xalqaro moliya institutlari
kreditlari dinamikasi (Mamlakatlar kesimida. mln.doll).²³**

№	Mamlakatlar va Xalqaro moliya institutlari nomi	2012 y.	2013 y.	2014 y.
	Umumiy hajmi	3828.26	3277.57	3231.34
1	Hitoy	2151.00	1081.99	902.46
2	Rossiya	815.97	676.85	845.36
3	Shveytsariya	13.88	16.30	3.19
4	Germaniya	14.01	52.58	37.97
5	Niderlandiya	70.50	84.29	57.35
6	Yaponiya	13.10	14.49	16.53
7	Janubiy Koreya	187.60	502.61	488.68
8	Buyuk Britaniya	42.48	70.03	62.27
9	Turkiya	6.61	18.03	9.75
10	Frantsiya	92.42	54.83	24.62
11	AQSH	6.70	0.34	0.80
12	Malayziya	47.55	63.11	9.67
13	BAA	15.54	2.85	7.37
14	Eron	-	5.80	3.60
15	JAR	35.50	27.25	
16	Saudiya Arabiston	8.89		
17	Avstraliya	1.46	1.24	
18	Bolgariya		5.20	1.97
19	Boshqalar			
	Xalqaro moliya institutlari	249.04	536.25	644.98
20	Osiyo taraqqiyot banki	124.17	362.47	335.28
21	Jahon banki	69.19	110.02	91.73
22	Islom taraqqiyot banki	50.33	56.50	216.73
23	Evropa taraqqiyot va tiklanish banki	0.00		
24	OPEK fondi	5.35		

²³ Ma'lumotlar Davlat statistika qo'mitasi byulleten ma'lumotlari asosida tuzilgan

Xorijiy investitsiyalarni jalb etish muhimligini e'tirof etish barobarida uning iqtisodiy mohiyatini anglab etish maqsadga muvofiqdir. Chet ellik investorlar asosan daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat ob'yektlariga qo'shadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlar, shu jumladan, intellektual mulkka doir huquqlar, chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromad O'zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalari deb e'tirof etiladi.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati benihoyat katta bo'lib, u quyidagilar bilan izohlanadi:

Chet ellik investorlar Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati benihoyat katta bo'lib, u quyidagilar bilan izohlanadi:

- birinchidan, xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etib, eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantiradi;

- ikkinchidan, import o'rnini bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor sohalariga yo'naltirish va pirovardida aholining me'yordagi turmush darajasini ta'minlash imkonini yaratadi;

- uchinchidan, kichik biznesni rivojlantirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini jadallashtirish orqali o'sib borayotgan aholini ish joylari bilan ta'minlaydi;

- to'rtinchidan, korxonalarning eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini, moddiy-texnik bazasini yangilaydi va texnik qayta qurollantiradi.

1.3 Investitsiya siyosati doirasida investitsiya faoliyatini xorijiy kredit liniyalari orqali moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari

O'zbekiston mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq tashqi iqtisodiy faoliyatni kengaytirib, bir qancha xalqaro moliyaviy institutlar (XMI) bilan o'zaro foydali aloqalar o'rnatib boshladi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish, kengaytirish uchun huquqiy asoslarini yaratib bergan asosiy qonun hujjatlari qabul qilindi. Ko'plab Prezident Farmonlari va hukumat qarorlari ishlab chiqildi. Bular, avvalo, «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida», «Investitsiya faoliyati to'g'risida», «Chet el investitsiyalari to'g'risida», «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida»gi qonunlar hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar bo'lib, ular tashqi iqtisodiy aloqalarni amalga oshirish, tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida xalqaro shartnomalar tuzish va ularni bajarish uchun asosiy shart-sharoitni yaratishga imkon berdi.

Shuni ta'kidlash joizki, O'zbekistonning XMIlar bilan aloqasi ham uzoq muddatli, ham qisqa muddatli ahamiyatga ega bo'lgan eng muhim vazifalarni birga qo'shish maqsadlaridan kelib chiqib amalga oshiriladi. Bunda:

- birinchidan, O'zbekistondagi barcha xo'jalik sub'yektlarining tashqi dunyo bilan o'zaro aloqalari uchun teng huquqli va milliy manfaatlarga mos keladigan shart-sharoitlar yaratish asosida xalqaro valyuta-moliya va savdo mexanizmlariga qo'shilish nazarda tutiladi;

- ikkinchidan, respublikaning joriy muammolarini hal etishga bevosita ko'maklashish, mavjud xalqaro tajriba asosida moliyaviy, texnikaviy yordam va maslahat olish yo'li bilan o'tkazilayotgan islohotlarni qo'llab-quvvatlash ko'zda tutiladi.

Bugungi kunda shu narsa aniq bo'lib qoldiki, Vatanimizning barqaror rivojlanishi yuqori darajadagi investitsion faollikka bog'liqdir. Unga esa ichki va tashqi resurslarni jalb qilish hamda ularni samarali o'zlashtirish orqali erishiladi. Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, chet el investitsiyalarini jalb qilish va

ularni o'zlashtirish iqtisodiyotni rivojlantirishga yordamlashadi va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar uchun kuchli rag'batlantiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Shuning bois Respublika Prezidenti bu haqda quyidagilarni ta'kidlaydi, - "Tashqi investitsiyalarni, shu jumladan, chet el sarmoyasini keng ko'lamda jalb qilish hozirgi kunda xalq xo'jaligi tarkibini qayta qurish maqsadlariga erishishning zarur sharti bo'lib qoldi. Chet el sarmoyasini jalb qilishni bevosita investitsiyalar tarzida ham, davlat qarzlarini, xalqaro moliya va iqtisodiy tashkilotlar, qarz beruvchi mamlakatlarning investitsiyaviy yoki moliyaviy kredit resurslari shaklida ham amalga oshirish ko'zda tutilmokda. Biz maxsus investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun chet el sarmoyasini jalb qilishga alohida e'tibor beramiz"²⁴.

«Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi qonunga muvofiq ajnabiy hamkorlar uchun ularning mol-mulklarini davlat ixtiyoriga olish va musodara qilishdan xalos etish uchun kafolatlar belgilab qo'yilgan. Ularning o'z faoliyati natijasida olgan foydasini va boshqa pullarni chet ellarga o'tkazishlariga, olingan foydani respublika hududida reinvestitsiyalash, respublika banklarida hisob-raqamga va unda har qanday valyutada cheklanmagan miqdorda mablag'ga ega bo'lish imkoniyati kafolatlanadi.

Shuningdek, xorijiy investorlarga nisbatan investitsiyalar amalga oshirilgan paytda amalda bo'lgan qonun me'yorlari 10 yil mobaynida qo'llanilishi ko'zda tutilgan qonun hujjatlari o'zgartirilmasligiga kafolatlar mavjud²⁵. Qonun hujjatlarida Davlat investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalar bo'yicha soliqlar to'lashdan 7 yil muddatga ozod etish, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar daromadining ishlab chiqarishni kengaytirishga va texnologiyani yangilashga sarflanadigan qismidan soliq olmaslik, o'zi ishlab chiqargan mahsulotni ruxsatnomasiz bemalol chetga olib chiqish va shu kabi ko'plab imtiyozlar va rag'batlantirish omillari ham ko'zda tutilgan.

²⁴ Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida.-T.: «O'zbekiston», 1995. 243-b.

²⁵ O'zbekiston Respublikasining «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida»gi qonuni, 1998. 30 aprel, /SBX /, 1998. 22-son, 5-b.

Vujudga keltirilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar xorijiy hamkorlarning keng investitsion faoliyati uchun qulay sharoitlarni yaratib, ularning huquqlarini va sarflangan sarmoyasini himoya qiladi. Lekin mavjud huquqiy me'yorlarni shu asnoda o'oldirmasdan, uni doimo takomillashtirib borish, ya'ni kafolat va imtiyozlarni kengaytirish, investitsiya faoliyati uchun o'ulay muhitni shakllantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha rag'batlantirishni kuchaytirish kerak. Respublika Prezidentining iborasi bilan aytganda, - "shunga erishish kerakki, O'zbekiston bozori mamlakatimizda o'z biznesiga ega bo'lishni istagan har biri kishi uchun jozibali bo'lsin"²⁶.

Iqtisodiyotimizga investitsiyalarni jalb qilish masalasida xalqaro moliyaviy institutlar xususiy sektorga alohida e'tibor bermoqdalar. Dunyoning ko'plab mamlakatlaridagi XMilar, jumladan, Evropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB), Osiyo taraqqiyot banki (OTB), Islom taraqqiyot banki (ITB) Germaniya rivojlanish kredit agentligi (GRKA), Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK), kabilar, aynan, xususiy tarmoqni rivojlantirish uchun investitsiya kiritishga tayyor ekanliklari shundan dalolat beradi. Buning sababi shuki, xususiy tarmoqni rivojlantirish davlat mulkchiligiga asoslangan totalitar tuzumdan xususiy mulkchilik tamoyillari amal qiladigan demokratik jamiyatga o'tish jarayonining uzviy qismi bo'lib, o'ta muhim va hal qiluvchi o'rin tutishini unutmashimiz kerak. Aynan mulkchilik shaklining o'zgarishi iqtisodiyot va jamiyat hayotida ortga qaytarib bo'lmaydigan jarayonlar va o'zgarishlar uchun mustahkam zamin, mustahkam asos yaratadi. Shundagina jamiyat hayotida ishlab chiqarish va ishlab chiqarish munosabatlarini tashkil etishning, mehnatga munosabatning tamomila yangicha tamoyillari amal qila boshlaydi.

Xususiy tarmoqni rivojlantirish istiqbollari haqida so'z yuritganimizda, biz, eng avvalo, kichik korxonalarni, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni ko'zda tutayotganimizga alohida e'tibor qaratishimiz lozim. Chunki rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, xususiy tarmoq, odatda, KB hamda xizmat ko'rsatish sohalarida rivojlanadi. Bunday davlatlarda xususiy tarmoqning

²⁶ O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. –T.: «O'zbekiston», 2000. 29-b.

YaIMdagi ulushi 50-60 foizni tashkil etadi. Mehnat bilan band bo'lgan aholining 65-70 foizi esa, aynan, mana shu sohada faoliyat ko'rsatadi. O'zbekistonda esa xususiy sektorning ulushi YaIMda faqat 35 foizni, aholini ish bilan ta'minlashda 30 foizni tashkil qiladi²⁷. Shu bois biz aholining asosiy qismi qishloq joylarda istiqomat qilishini va u erlarda iqtisodiy turmush tarzi va faollikni oshirish naqadar muhimligini inobatga oladigan bo'lsak, o'z-o'zidan xususiy sektorni rivojlantirish va rag'batlantirish naqadar zarur ekanligini anglab etish qiyin emas. Bu borada xalqaro moliyaviy institutlar bilan o'zaro foydali hamkorlik qilish, ayni muddaodir.

Respublika Prezidenti amalga oshirilishi zarur bo'lgan ustuvor vazifalardan biri sifatida, - «Jamiyatga yangi texnologiyalarni olib kelish, xarajatlar o'rni tezda qoplanib ketadigan kichik korxonalar o'urilishini faollashtirish zarur»²⁸, - deb ta'kidlagan fikrlaridan ham KB korxonalariga yangi texnika va texnologiyalarni jalb qilish orqali ularning ishlab chiqarish faoliyatini jadallashtirish naqadar muhimligini anglab olish mumkin. Bu vazifalarni hal qilishda XMIlarning moliyaviy va texnik ko'magi muhim o'rin tutadi.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki. (YTTB).

YTTB kreditlari aniq maqsadlarga berilib, ular: chet el uskuna va texnologiyalarini sotib olishga, xizmat ko'rsatish sohasiga va ishchi kapital sarf-xarajatlarini qisman qoplashga, masalan: subloyihalarni moliyalashtirish uchun beriladi. Misol uchun: 1993 yil 23 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki bilan - YTTB va 1999 yil 1 dekabrda O'zbekiston aksiyadorlik tijorat sanoat qurilish banki bilan -YTTB o'rtasida kredit Bitimi imzolangandan keyin xorijiy kredit linyiyalarini O'zbekistonda kichik va xususiy biznesni rivojlantirishga jalb etish boshlandi. Bu bitimga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Hukumatining kafilligi asosida jami 60 mln; dollarlik kredit ajratildi. Bu kredit liniyasi 13 yilga berilgan bo'lib, undan dastlabki 3 yili

²⁷ Prezident Islom Karimovning 2001 yilda respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari, iqtisodiy islohotlarning borishini baholash hamda 2002 yilgi vazifalarga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi yig'ilishida so'zlagan nutqi. /Xalq so'zi/, 2002. 15 fevral, 2-3 b.

²⁸ Karimov I.O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida.-T.:«O'zbekiston»,1995.243b.

imtiyozli hisoblanadi, 3 ta transh bo'yicha berildi. O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat, Milliy banki %i transh bo'yicha 21 ta loyihani moliyalashtirdi.

YTTB birinchi kredit liniyasining tez va muvaffaqiyatli o'zlashtirilganligi va O'zbekiston Respublikasi TIF Milliy bankining ishonchliligi va yuqori obro'ga ega ekanligini inobatga olib, 1996 yil dekabr oyida yuqoridagi programma bo'yicha II-kredit liniyasini ochish masalasini ko'rildi va bu masala o'rganib chiqilib ma'qullandi Bu kredit liniyasi 120 mln.\$ ni tashkil etib, undan 60 mln.\$ O'zbekiston Respublikasi Hukumatining kafolatisiz beriladigan bo'ldi (TIF MB kafolati ostida).

YTTB kredit liniyasini olishning asosiy shartlaridan biri -bu loyihaning eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarishga qaratilganligidir.

Kreditlashtirish muddati 7 yilgacha bo'lib, undan 2 yili imtiyozlidir. Beriladigan kreditning minimal mikdori 100000 dollardan kam bo'lmagan va maksimal miqtsori 5 mln.\$ gacha bo'lib, lekin loyiha dastlabki qiymatining 75% idan ko'p mikdorda kredit berilmaydi (Hozirgi vaktida, kreditning minimal qiymati 50.000 AQSh dollarigacha tushirilgan). Bundan tashqari tadbirkor loyihani amalga oshirish uchun kerak bo'ladigan shaxsiy kapital, bino, inshoot, mashina-uskunalar va ishlab chiqarish jarayonidan oldin aylanma kapital hamda moliyaviy xarajatlarni qoplash uchun boshqa mablag'larga ega bo'lishi kerak.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganlarning qiymati loyihaning dastlabki qiymatining 25% idan kam bo'lmagan mikdorda bo'lishi kerak. Olinayotgan kreditning garov ta'minoti (uchinchi shaxslar yoki hukumat kafolati, sug'urta polislari, asosiy vositalar, bino, inshootlar baholash qiymatining 70% miqdorida, uskunalar esa baholash qiymatining 60-70% miqdorida ta'minlanganlik garovi sifatida olinadi). So'ralayotgan kredit summasining kamida 120% summasini tashkil etishi kerak. Takdim etilayotgan kredit uchun foiz stavkasi (yoki N18011, R1VOK) dan kam bo'lmagan plyus kredit liniyasi ochilgan respublikamiz banklarining komissiyalari haqlari kiradi.

Hususiyl sektorni ko'llab-quvvatlash YTTB, hususiyl sektorning iqtisodiy islohotlar muvaffaqiyatining asosiy omili bo'lganligini va ish joylarini yaratishda maxsus rolini hisobga olgan holda, hususiyl sektorni o'zining kichik va O'rta Biznes Kredit Liniyasi orqali qo'llab-quvvatlashni davom ettirdi. Ushbu yo'nalishda, Bank tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va moliya sektorini kuchaytirish borasida institutsional rivojlanishga yo'naltirilgan donor mablag'larini jalb qilgan.

"Ipoteka" YTTBning mikrokredit faoliyatiga ko'shilishi va "Hamkorbank" bilan hamkorlikning kengaytirilishi, bu moliya muassasa-larining mikro va kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarni yanada kengaytirdi, hususiyl sektorning moliyalashtirilishini yaxshiladi va raqobatni oshirdi. Bundan tashqari, a'zo banklar tarafidan savdoni rivojlantirish borasida harakatlarini, Savdo Rag'batlantirish Dasturi orqali qo'llab-quvvatladi va hususiyl sektorning yanada rivojlanishi uchun Qo'shma-Moliyalashtirish Dasturi imkoniyatlaridan foydalanish imkoniyati o'rganib chiqilmoqda.

Osiyo taraqqiyot banki (OTB).

O'zbekiston Osiy taraqqiyot bankiga 1995 yilning avgustida a'zo bo'lib kirdi. Respublikamizning bu bankka a'zo bo'lishi iqtisodiy o'zgarish jarayonini ma'lum darajada tezlashtiradi hamda tadbirkorlik va biznesning turli xil formalarini rivojlanishiga ko'maklashadi.

1996 yilning 17 dekabrda OTBning Direktorlar Kengashi O'zbekistonga 50 mln.\$ miqdorida kredit liniyasini 13 yil muddatga, dastlabki 3 yilini imtiyozli shartda ochishga qaror qildi. Bugungi kunda, bu kredit liniyasi to'liq o'zlashtirilgan bo'lib, o'nlab kichik va xususiy biznes loyihalari moliyalashtirildi.

OTB haqida qisqacha ma'lumot. Bu bank 1966 yil dekabr oyida o'z faoliyatini boshladi. Uning shtab kvartirasi Filippinning Manila shahrida joylashgan. Bank Osiyo regionidagi 36 ta davlat va bu regiondan tashqaridagi yana 16 ta davlat tomonidan tashkil etilgan. Bugungi kunda, bu bank aholisi zich

joylashgan hamda aholi soni tez o'sayotgan davlatlarga ko'maklashayotgan banklardan biriga aylandi.

OTB, asosan, o'z kreditlarini texnologiya va uskunalarni sotib olish, ishchi kapital xarajatlarini qisman qoplashga, qishloq xo'jaligi sektorida mavjud uskunalarni modernizatsiya qilish, qayta qurollantirish va yangi ishlab chiqarishni tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan subloyihalarni moliyalashtirishga beriladi. Bu kredit liniyasining qarz oluvchisi bo'lib, Respublikamizda, asosan, O'zbekiston Respublikasi TIF Milliy banki hisoblanadi. Subqarz oluvchi bo'lib, xususiy, kichik va o'rta korxonalar bo'lishi mumkin. (Aralash kapitalga ega bo'lgan korxonalar bo'lishi mumkin, lekin bunda, boshqaruv xususiy sektor qo'lida bo'lishi kerak). Kredit olish uchun loyiha eksportbop yoki import o'rnini bosadigan mahsulot ishlab chiqarilishi va valyutada o'zini qoplashi kerak.

Kredit kichik biznes loyihalariga uzog'i bilan 7 yil muddatga, shundan 3 yili imtiyozli shartda beriladi. Berilayotgan kreditning maksimal summasi 5 mln \$ ni tashkil etadi. Lekin bu summa loyihaning dastlabki qiymatining – 75 % ini qoplashi kerak. Uskunalar va texnologiyalarning ta'minotchisi OTB ning a'zosi bo'lishi kerak (56 ta davlat, bularga: Osiyo davlatlari, AQSh, Kanada, Evropa davlatlari, Avstraliya, Turkiya davlatlari kiradi. Bu bankka a'zo bo'lmagan davlatlar qatoriga Yaqin Sharq, MDH davlatlari (Qozog'iston, Kirg'iziston, O'zbekistonni qo'shmagan holda) va boshqa davlatlar.

Osiyo taraqqiyot bankining kreditini olish uchun qarz oluvchi loyiha qiymatining kamida 25%iga o'z mablag'lariga ega bo'lishi kerak. Qarz oluvchi ta'minot sifatida - bino, inshoot, mashina-uskunalar va ishlab chiqarish jarayonidan oldingi aylanma kapital hamda moliyaviy xarajatlarni qoplash uchun boshqa mablag'larga ega bo'lishi kerak. Garov ta'minoti sharti olinayotgan kredit sumasining 120%dan kam bo'lmasligi kerak.

Osiyo Taraqqiyot Banki O'zbekistonda ko'plab loyihalarni moliyalashtirish uchun reja tuzgan. Bunga ko'ra bu loyihalar 2009 yildan 2014 yilgacha amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. Bu loyihalarga sog'liqni saqlash, ta'lim sohasiga,

noironlarga beg'araz yordami, shaharlarda kanalizatsiyani yaxshilash, toza suv etkazib berish va boshqa loyihalardir.

Germaniya rivojlanish kredit agentligi (KFV).

KFV iqtisodiyotning turli sohalaridagi (qishloq xo'jaligidan tashqari) loyihalarga - texnologiya va uskunalarni sotib olish, ishlab turgan korxonalarni modernizatsiya qilish va kengaytirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish uchun kredit beradi.

Bu kredit liniyasining qarz oluvchisi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi TIF Milliy banki hisoblanadi, subqarz oluvchi bo'lib esa — xususiy, kichik biznes korxonalari hisoblanadi (Aralash kapitalga ega bo'lgan qorxonalar bo'lishi mumkin, lekin boshqaruv xususiy sektor qo'lida bo'lishi kerak).

Loyiha eksportga mo'ljallangan, import o'rnini bosadigan va valyutada o'zini qoplaydigan bo'lishi kerak. Kreditlashtirish jarayoni 1 yildan 5 yilgacha bo'lishi mumkin. Bu kredit liniyasida imtiyozli davr 1,5 yil hisoblanadi. Beriladigan kredit maksimal summasi 2,5 million YEVROni tashkil etadi, lekin loyiha dastlabki qiymatining 75% idan ko'p bo'lmagan mikkorda beriladi. Bu kreditni olish uchun subqarz oluvchi loyiha dastlabki qiymatining kamida 25% o'z mablag'lariga ega bo'lishi kerak. Qarz bo'yicha garov ta'minoti olinayotgan kreditning 120% idan kam bo'lmasligi kerak.

Islom taraqqiyoti banki.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida respublikamiz banklarining jahon moliya sistemasiga qo'shilish jarayonini yanada tezlashtirish zarur bo'ladi.

Bu muommalarni hal qilish uchun xalqaro moliya institutlar bilan muloqotni rivojlantirish zarur.

Respublikamiz korxonalari o'z mahsulotlarini musulmon mamlakatlariga eksport qilish va rivojlangan musulmon mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarimizni rivojlantirish uchun Islom taraqqiyot banki bilan munosabatlarni o'rnatishni taqozo etadi.

Islom taraqqiyot banki, bu davlatlarora kredit tashkiloti bo'lib, uning a'zolari musulmon mamlakatlari hisoblanadi. Bu Fors kurfazidagi davlatlarning

neft orqasidan topgan daromadlari hisobiga tashkil topgan birinchi yirik moliya institutlaridan hisoblanadi.

Islom taraqqiyot bankini tashkil etish to'g'risidagi Deklaratsiya, Musulmon mamlakatlari moliya vazirlari tomonidan 1973 yil dekabr oyida imzolangan edi. Bank esa o'z faoliyatini 1975 yil oktyabr oyida boshladi.

Bankning asosiy maqsadi Islom qonunlari asosida musulmon mamlakatlari ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga yordam berish hisoblanadi.

Islom taraqqiyot bankining boshqa moliya kredit institutlaridan farqi kreditlashda foiz olmasligidadir. Bank kreditlashda olinadigan foiz o'rniga, korxona oladigan foydadan ulush sifatida oladi, ya'ni korxona olingan foydani bank bilan bo'lishib olishadi.

Islom taraqqiyot banki investitsion loyihalarni moliyalashtirishda juda ko'p usullardan foydalanadi: jumladan, texnik yordam, lizing, kredit, kapitalda ishtiroki, moliyalashtirish, foydani bo'lishdagi ishtiroki va boshqalar.

Islom taraqqiyot banki investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda uzoq muddatli kreditlar berib, yuqorida aytganimizdek, bu kreditlardan foydalanganligi uchun foiz olinmaydi. Kreditni qaytarish muddati 25 yilgacha bo'lishi mumkin. Bank ma'muriy xarajatlarni qoplash uchun 2,5 foiz miqdorida komissiya haqi oladi. Imtiyozli kreditlash davri 7 yilgacha bo'ladi.

Hozirgi kunda Islom taraqqiyot bankiga 55 davlat a'zo bo'lib, O'zbekiston Respublikasi bu bankka, uning 28- yillik yalpi majlisida 2003 yilda 2 sentyabrda a'zo bo'lgan.

Islom taraqqiyot banki tomonidan, O'zbekiston Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasiga vositalar sotib olishga 293 ming dollarlik grant, Imom Al-Buxoriy memorial kompleksini ta'mirlash uchun 255 ming dollar ajratilgan bo'lib, bu mablag'lar to'liq o'zlashtirilgan.

Bundan tashqari, Mir-Arab madrasasini, Toshkent shahridagi hospitalni ta'mirlash uchun, maktablarda arab tillarini o'qitysh uchun O'zbekiston Musulmonlar idorasi bilan Bank o'rtasida 1,4 million dollarlik grant ham imzolangan edi. Shu bilan birga, mamlakatimizda shoshilinch tibbiy yordam

ko'rsatish Markazlari zamonaviy texnik apparatlari bilan ta'minlashda Islom taraqqiyot bankining yordami katta bo'lmoqda.

2-jadval.

O'zbekiston Respublikasining 2011-2013 yillarga mo'ljallangan davlat investitsiya dasturi doirasida o'zlashtirilgan Xalqaro moliya institutlari kreditlari dinamikasi (mamlakatlar kesimida. mln.doll.).²⁹

№	Mamlakatlar va Xalqaro moliya institutlari nomi	2011y	2012y	2013y
	Xalqaro moliya institutlari	249.04	536.25	644.98
1	Osiyo taraqqiyot banki	124.17	362.47	335.28
2	Jahon banki	69.19	110.02	91.73
3	Islom taraqqiyot banki	50.33	56.50	216.73
4	Evropa taraqqiyot va tiklanish banki	0.00		
5	OPEK fondi	5.35		
6	Saudiya taraqqiyot fondi		4.00	1.24

Xullas, XMIlarning kredit resurslaridan foydalanishdan ko'zlangan maqsad xorijiy uskunalar va texnologiyalarni harid qilishni, shuningdek qishloq xo'jaligi mahsulotlari va mahalliy xom-ashyo, resurslarini qayta ishlashni nazarda tutuvchi investitsion loyihalarni ta'minlash bilan bog'liq dastlabki ishchi kapitali sarflarini moliyalashdan, tadbirkorlarning istaklari bo'yicha ishlab chiqilgan namunaviy va shaxsiy loyihalar asosida eksportga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarishdan iborat.

Istiqbolda XMIlarning kredit resurslarini respublikaga jalb qilish va ularni samarali o'zlashtirish maqsadida vatanimizga yuqori sifatli texnika-texnologiyalarni yetkazib beruvchi investorlarga nisbatan ochiq eshiklar siyosatini olib borish, tashqi va ichki iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish, bevosita xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilishni ta'minlovchi ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlarni yanada takomillashtirish, investorlarning qo'ygan kapitali va ularning huquqlarini himoyalashni kafolatlashni yanada kuchaytirish lozim.

²⁹ Ma'lumotlar Davlat statistika qo'mitasi byulleten ma'lumotlari asosida tuzilgan www.stat.uz/uz/reports

II-BOB. IQTISODIYOTIMIZNING TARMOQLARINI MODERNIZATSIYA QILISH VA TEXNIK YANGILASHDA MAQSADLI INVESTITSİYALAR KO'LAMINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI

2.1. “Nobel-Pharmsanoat” MChJning tashkil topishi hamda uning faoliyati tasnifi

2000 yilning iyul oyida “Nobel Ilaç Sanayii ve Ticaret A.Ş” kompaniyasining xalqaro sarmoyalar dasturi asosida O'zbekiston Respublikasida “Nobel Farmsanoat” chet el farmatsevtik korxonasi tashkil etildi.

Bugungi kunga kelib “Nobel Farmsanoat” ChEK MChJ O'zbekiston Respublikasi farmatsevtika sanoatining eng ilg'or va e'tiborli korxonalaridan biriga aylandi va iste'molchilar ishonchini qozondi.

Korxonamiz o'z oldiga qo'ygan maqsadi va strategiyasi – xalqaro sifat standartlari talablariga javob beradigan ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishdan, O'zbekiston bozorini mahalliy sharoitlarda ishlab chiqarilgan sifatli va keng ta'sir kuchiga ega, raqobatbardosh dori vositalari bilan to'laqonli ta'minlashdan iboratdir. Jamiyat o'z ta'minlovchi va targ'ibotchi (distribyutor) hamkorlari bilan uzoq muddatli, mustahkam va samarali aloqalar o'rnatishga intiladi. Shuningdek, eksport hajmi va geografiyasini yanada kengaytirish yo'lida tinimsiz mehnat qilmoqda.

2014 yilning yanvar-dekabr oylarida meditsina sanoati korxonalari tomonidan 564,5 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi va 2013 yilning mos davriga nisbatan 112,6 foizga o'sdi. Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida tarmoqning yirik korxonalari tomonidan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, tarkibida gormonlar va antibiotiklar mavjud bo'lmagan dori-darmonlar ishlab chiqarish 15,7 foizga o'sdi. Shuningdek, farmatsevtik moddalar bilan qoplangan yoki to'yintirilgan momiq paxta, doka va shu kabi turdosh materiallar ishlab chiqarish hajmining 33,1 foizga o'sishi kuzatildi.³⁰

³⁰ Davlat Statistika Qo'mitasi Axborot Xizmati ma'lumotlari

Korxona Bosh rahbariyati Sifatni boshqarish tizimining samaradorligini uzluksiz ravishda yaxshilash va korxonaning ISO 9001 2008 xalqaro sifat standartlari talablariga javob beradigan ishlab chiqarish faoliyatini ta'minlashni, shuningdek sifat boshqaruvi va Hazard Analysis and Critical Control Points (NASSR) boshqaruv tizimlarining doimiy va uzluksiz takomillashtirilishini xamda ularning samaradorligini oshirilishini o'z zimmasiga oladi.

Mazkur sifat borasidagi Siyosat, Sifatni boshqaruv va NASSR tizimlarining korxonani boshqaruv vositasi sifatida aks ettiradi va "Nobel Pharmsanoat" ChEK Sifatni boshqaruv va NASSR tizimlari faoliyatining ustivor yo'nalishlarini belgilab beradi:

1. Dori vositalar ishlab chiqarish jarayonlarini milliy va halqaro yaxshi ishlab chiqarish amaliyoti qoidalari (GMP) standarti talablariga ko'ra muvofiqlashtirish;

2. Tizimda o'rnatilgan qonun talablari bilan birgalikda iste'molchilarning talablarini inobatga olgan holda ishlab chiqarilayotgan maxsulotlarning sifati va xavsizligini ta'minlash;

3. Ish faoliyatining har bir bosqichida uzluksiz ravishda sifatni oshirishni rejalashtirish, tadbiq etish va amalga oshirish;

4. Iste'molchilar ehtiyojlarini inobatga olgan holda, ishlab chiqarish jarayonlarini ritmik va uzluksiz ravishda olib borish va doimiy sifatni ta'minlash.

5. Aholi ehtiyojlarini inobatga olgan holda, dori vositalari assortimentini doimiy ravishda kengaytirish, shuningdek yangi savdo bozorlarini kengaytirish.

6. Korxona ishchilarining kasbiy savodxonligini doimiy ravishda oshirish va har bir xodimni sifatli mehnat qilishga rag'batlantirish.

Kompaniya tarixi. "Nobel Pharmsanoat" Chet el korxonasi 2000-yilda, dunyo miqyosda faoliyat ko'rsatuvchi Ulkar Holding ishtirokida barpo etilgan bo'lib, bugungi kunda O'zbekiston farmatsevtika sohasida 100% chet el sarmoyasi asosida faoliyat ko'rsatayotgan yagona ishlab chiqaruvchidir.

Firmaning maqsadi – O'zbekistonda yuqori sigatli dori-darmon ishlab chiqarish, o'lka tibbiyotiga taqdim etish va dunyo bozoriga eksport iboratdir.

“Nobel Pharmsanoat” –faoliyat turlarini har tomonlama rivojlantirib borayotgan yosh va dinamik shirkatdir. Bygyngi kunda firma tomonidan 60 dan oshiq nomda yuqori sifatli dori-darmon vositalari ishlab chiqarmoqda.

O'zbekistonda ishlab chiqarilgan mazkur mahsulotlar chet ellarga ham eksport qilinmoqda.Firmada bugungi kunda 100 dan oshiq yuqori malakali xodimlar mehnat qilmoqdalar. Marketingni zamonaviy usullari asosida O'zbekistonning barcha viloyatlaridagi tibbiy vakillarimiz mutaxassislarga mahsulotlarimizning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot bermoqdalar. “Nobel Pharmsanoat” tomonidan ishlab chiqarilayotgan barcha mahsulotlar yetakchi davolash muassasalarida sinovdan o'tkazilgan va O'zbekiston Sog'liqni Saqlash Vazirligining tegishli sertifikat va litsenziyalariga ega.

Kompaniya, o'lka bozoriga yuqori sifatli dori darmon vositalarini taqdim etish bilan O'zbekiston tibbiyotiga o'z hissasini qo'shayotganidan mamnun va zamonaviy tibbiyotning tobora oshib borayotgan talablari yo'lida bor kuch g'ayratimiz bilan xizmat qilish asosiy va oliy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

“Nobel Pharmsanoat” MChJning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

- Jamiyat dori darmon va boshqa farmatsevtika mahsulotlarni ishlab chiqarishni tashkil etish, tashqi iqtisodiy aloqalarni yanada rivojlantirish;

- respublikaga chet el sarmoyalarini jalb qilish;

- O'zbekiston Respublikasi ichki bozoridagi dori darmon va boshqa farmatsevtika mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojni qondirish, shuningdek eksport imkoniyatlarini kengaytirish;

- bozorni sanoat va iste'mol mahsulotlariga to'ldirish maqsadida o'zga ishlab chiqarish bilan shug'ullanish, hamda huquqiy va jismoniy shaxslarning buyurmalarini bajarish uchun xizmat ko'rsatish;

- bozor infratuzilmalarini rivojlantirishda, O'zbekiston Respublikasidagi hamda xorijiy mamlakatlardagi korxonalar va tashkilotlar, jismoniy va yuridik shaxslar bilan amaliy hamkorlikni tashkil etishda ko'maklashish;

- xalqaro ilmiy-texnik, ishlab chiqarish va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish;

- Ishtirokchilar foydasiga daromad olish va uni taqsimlash.

- Belgilangan maqsadlarga erishish uchun Jamiyat quyidagi faoliyat turlarini amalga oshiradi:

- dori darmon va boshqa farmatsevtika mahsulotlarni ishlab chiqarishni tashkil etish, ularni ishlab chiqarish va sotish;

- ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan barcha xom ashyo va turli ko'rinishdagi qo'shimcha mahsulotlarni import qilish;

- farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish borasida erishilgan yutuqlarni o'rganish va ularni o'zida tadbqiq qilish;

- jahon bozorida etakchi o'rin tutgan farmatsevtika korxonalari bilan hamkorlikda, patent asosida ishlab chiqarish faoliyatini yuritish;

- O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan, hamda chet eldan import orqali keltirilgan dori darmon va boshqa farmatsevtika mahsulotlarini sotishni tashkil etish, dorixona ko'rinishidagi savdo tarmoqlarini tashkil etish;

- dunyoda mashhur shifolash markazlari, klinikalar va kasalxonalarining shu'balarini ochish;

- yangi sanatoriya-profilaktika shifoxonalarini ochish va mavjudlarni qayta qurish va ularni zamonaviy tibbiy va boshqa texnikalar bilan ta'minlash;

- tibbiy uskunalar va preparatlarni eksport va import qilish bilan bog'liq tijorat faoliyatini amalga oshirish, ularni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish;

- tibbiy shifokor maslahati, diagnostika va shifolash markazlarini tashkil etish va yuritish;

- paxta tolasidan tibbiy va kosmetik maqsadlarga mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun sanoat korxonalarini qurib, uskuna va jihozlar bilan ta'minlab topshirish;

- sanoat, fuqarolar va ijtimoiy ehtiyojdagi ob'ektlarni qurish, foydalanish, qurilish - montaj, sozlash-ishga tushirish, ta'mirlash, tiklash ishlarini amalga oshirish;

- ulgurji va chakana savdo, shu jumladan eksport-import operatsiyalari sanoat ehtiyojidagi mollar, xalq iste'mol mollari, oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa mollar savdosi bilan shug'ullanish;

- O'zbekiston Respublikasidagi va uning tashqarisidagi yuridik shaxslarga konsignatsion, injineriing, vositachilik, distribyuterlik, dilerlik, agentlik, marketing xizmatlari ko'rsatish;

- moliyaviy yordam ko'rsatish, kreditlar, qarzlar, ssudalar (shu jumladan, qaytarib bermaslik sharti bilan) berish, qimmatbaho qog'ozlar bilan turli xildagi moliyaviy va boshqa operatsiyalar bajarish;

- matbaa va reklama faoliyati;

- insonparvarlik va homiylik faoliyati;

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan ta'qiqlanmagan, istalgan boshqa faoliyat turlari;

- o'zining mablag'lari hisobiga asosiy ishlab chiqarish fondlari, aktivlar, litsenziyalar va patentlarni sotib olish;

- Tegishli idoralarda rasmiylashtirish orqali amalga oshirish talab etiladigan faoliyat turlari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartib asosida litsenziya, ruhsatnoma, guvohnoma olingach amalga oshiriladi.

- Jamiyat o'z faoliyatini amalga oshirish uchun:

- ishtirokchilardan hamda o'zga yuridik va jismoniy shaxslardan qonunlarda belgilangan tartibda ishlab chiqarish vositalarini, ishlab chiqarish maydonlarini, yer uchastkalarini, binolar, avtomashinalar, savdo korxonalarini, shu jumladan ulgurji savdo bazalari va omborxonalarini, turli ehtiyojdagi xonalarni, boshqa mol-mulklarni o'z tasarrufiga sotib oladi va ijaraga oladi;

- naqd pulga va pul o'tkazish yo'li bilan jihozlar, moddiy - texnika vositalari, xom ashyolar, shu jumladan, elektr quvvatini, bug', tabiiy gaz, suv va boshqalarni, ishlab chiqarish-texnik ehtiyojdagi mollarni ulgurji va chakana narxlarda sotib oladi;

- patentlar va litsenzion huquqlar, texnologiyalar, «nou-xau», texnik va tijorat axborotlarini oladi;

- bevosita tashqi iqtisodiy faoliyatni, shu jumladan eksport- import operatsiyalarini amalga oshiradi;

- belgilangan tartibda uzoq va qisqa muddatli kreditlar, shuningdek Jamiyatning xo'jalik va tijorat vazifalarini amalga oshirish bilan bog'liq chiqimlar uchun qarz va avanslar oladi;

- zarur hollarda ijaraga, subijaraga mol-mulk oladi, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar bilan shartnomaviy aloqada bo'ladi, shuningdek o'z faoliyati va Ustav maqsadlari yo'nalishiga muvofiq boshqa harakatlarni amalga oshiradi;

- O'zbekiston Respublikasi hududida va uning tashqarisida barcha shakldagi iqtisodiy aloqalarni hamda shahobchalar, vakolotxonalar, shu'ba korxonalar, banklar, sug'urta kompaniyalari, ekspeditsion kompaniyalar va boshqa yuridik shaxslarni tashkil etish bo'yicha ishlarni amalga oshiradi;

- O'zbekiston Respublikasi hududida va uning tashqarisida xalqaro valyuta birjalarida konvertatsiya qilinadigan valyutada hamda O'zbekiston Respublikasi valyutasida bank kreditlari va korporatsion kreditlar hamda quyilmalar oladi, foydalanadi va beradi;

- O'zbekiston Respublikasidagi va uning tashqarisidagi bank hamda boshqa kredit muassasalarida erkin konvertatsiya qilinadigan valyutadagi va milliy valyutadagi o'z mablag'larini hamda olingan mablag'larni tijorat asosida taqsimlaydi va investitsiyalaydi;

- O'zbekiston Respublikasi hududida va uning tashqarisida ko'rgazmalar, savdo ko'rgazmalari tashkil etadi, o'tkazadi, yarmarkalarda, badiiy ko'rgazmalarda, kim oshdi savdolarida, taqdimotnomalarda ishtirok etadi;

- lizing asosida jihozlar, omborxonalar, ko'rgazmalar uchun inshootlar, ishlab chiqarish xonalari va boshqa xonalar sotib oladi;

- zaruratdan kelib chiqib O'zbekistonlik va xorijiy xodimlarni ishga oladi va qayta o'qitadi;

- boshqa yuridik shaxslarni qimmatbaho qog'ozlar bilan investitsiyalaydi, qimmatbaho qog'ozlar chiqaradi;

- mol-mulk ajratib oladi;

- O'zbekiston Respublikasida va uning tashqarisida litsenziyalar, patentlar, nou-xau va boshqa aqliy mulklarni tegishli idoralarda ro'yhatdan o'tkazadi, sotib yoki ajratib oladi;

- ko'ngilli jamoat va nodavlat tashkilotlari hamda birlashmalarida ishtirok etadi;

- mustaqil va uchinchi shaxslarning hech qanday aralashuvisiz ho'jalik faoliyatini rejalashtiradi va boshqaradi;

- o'z mollari, mahsulotlari, ish va xizmat turlariga mustaqil ravishda, uchinchi shaxslarning hech qanday aralashuvisiz narh belgilaydi;

- binolar, qurilishlar, qurilmalar, jihozlar, korxonalar va boshqa mol-mulklarni, shu jumladan cheklanmagan tarzda aktsiyalar, ishtirok ulushlari va hissalarini o'z tasarrufiga oladi, ijaraga beradi, kafillikka topshiradi, ajratib oladi va boshqaradi;

- marketing, maslahat, vakolatchilik, dilerlik, brokerlik, vositachilik, axborot, moliyaviy injeniring, lizing, dizaynerlik, innovatsion, homiylik, ho'jalik-maishiy va transportda yuk tashish xizmatlarini ko'rsatadi, ilmiy, texnik, ishbilarmonlik va boshqa axborotlarni nashr qiladi va tarqatadi, reklama qiladi;

- savdo-sotiq, vositachilik faoliyatini amalga oshiradi, magazinlar tashkil etadi, o'z mablag'lari yoki jalb qilingan mablag'lar hisobiga, shuningdek komission (konsignatsiya) shartlarida mol sotib oladi;

- o'zida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni va boshqa mahsulotlarni ijaraga olingan magazinlar yoki ochiladigan o'z magazinlari, bazalari, omborxonalari orqali tijorat, chakana, vositachilik, ulgurji va mayda ulgurji savdosini tashkil etadi hamda o'tkazadi;

- ishlab chiqarish-konstruktorlik ishlarini, nou-xauni tashkil etadi, o'tkazadi;

- qimmatbaho qog'ozlarini chiqaradi, sotib oladi, oladi, sotadi, tarqatadi;
- O'zbekiston Respublikasida va uning tashqarisida yuridik va jismoniy shaxslar bilan shu'ba korxonalari, shaxobchalar, vakolatxonalar va birlashmalar tashkil etadi;
- istalgan yuridik va jismoniy shaxslardan so'mda va xorijiy valyutada kredit oladi va beradi, shuningdek ular bilan boshqa moliyaviy bitimlar tuzadi;
- O'zbekiston Respublikasida va uning tashqarisida so'mda va erkin muomaladagi valyutada hisob raqamlari va boshqa bank raqamlari ochadi hamda foydalanadi;
- O'zbekiston Respublikasida va uning tashqarisida ishonch mol-mulkleri va ishonch boshqaruvi operatsiyalarini amalga oshiradi hamda ishonch boshqaruvi haqida shartnomalar tuzadi;
- O'zbekiston Respublikasi hududida va uning tashqarisida ko'rgazmalar, savdo ko'rgazmalari tashkil etadi, o'tkazadi, yarmarkalarda, badiiy ko'rgazmalarda, kim oshdi savdolarida, taqdimotnomalarda ishtirok etadi;
- lizing asosida jihozlar, omborxonalar, ko'rgazmalar uchun inshootlar, ishlab chiqarish xonalari va boshqa xonalar sotib oladi;

Respublika farmatsevtika tarmog'ining ilmiy salohiyati ham yuksalib bormoqda. Bugungi kunda 6 ta ilmiy tekshirish instituti, 2 ta ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi mavjud bo'lib, unda 797 nafar xodim faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning 207 nafari fan nomzodlari, eng muhimi, bu olimlar soha fidoyilari, ular milliy farmatsevtika sanoati taraqqiy etishi uchun jon kuydirmoqda, ilmiy tadqiqot olib bormoqda.

Joriy yilning 6 oylik yakuniga ko'ra farmatsevtika va dorivor preparatlar ishlab chiqarish umumiy hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1.5 barobarga oshdi.

Hozir farmatsevtika sanoati mahalliy korxonalari tayyorlanayotgan dori vositalari mamlakatimiz bozoridagi mahsulotning 15.4 % ni tashkil qiladi.

2.2. “Nobel Pharmsanoat” MChJning tashkiliy strukturasi hamda ijtimoiy-iqtisodiy va moliyaviy holati tahlili

Iqtisodiy rivojlanishni innovatsion yo'naltirilganligi, texnologik yangilinishning o'sib borayotgan zaruriyati innovatsion faoliyatda tashkil qilish tamoyillari va tarkibiy-tashkiliy tuzilishi, o'zaro aloqalarga aniq va mos kelishning muhimligini ta'kidlaydi. Tushunarliki, innovatsion o'zgarishlarni kengayib borgani sari innovatsion rivojlanishning vazifaviy – elementar bazasini ilmiy asoslangan shakllanishi talab qilinadi.

Korxonalarda tashkiliy strukturadagi innovatsiyalarni tashkil qilish o'z ichiga uchta asosiy jihatlarni oladi:

- innovatsion faoliyatning yangiliklarini ishlab chiqish, tadbiq etish va ishlab chiqarishni birgalikda amalga oshiruvchi odamlarning birlashmasi bo'lgan sub'ektni;

- Tashkilotning innovatsion faoliyatdagi zaruriy vazifalarni bajarishga qaratilgan jarayonlari va harakatlarining majmuasini;

- Tizimni ichki tartibga solinganligi va uning elementlari tizimchalari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni takomillashuvini ta'minlovchi tuzilmalarni.

Ushbu nuqtai nazardan innovatsiyalarni tashkil qilishni innovatsion faoliyatni tartibga solish jarayoni sifatida, sub'ekt, firma, institut, innovatsion korxona sifatida, bo'linmalarning tarkibi va o'rnini belgilab beruvchi, hamda innovatsion faoliyatda amalga oshiriladigan shakllar, usullar, jarayonlar tadbirlarini tartibga soluvchi tashkiliy tuzilmalar sifatida tushunish kerak.

Tajribali ishlab chiqarish, marketing va sotish bosqichida turli ko'lamli biznes ilgariga chiqadi, shuning bilan bir vaqtda yangiliklarni ishlab chiqarish va tarqatish yirik va o'rta korxonalar va sanoat kompaniyalarida amalga oshiriladi.

Innovatsion faoliyatda vujudga kelgan mehnatni iqtisodiy taqsimlanishining turiga muvofiq kichik va o'rta ko'lamdagi korxonalarning ko'pchiligi yarim fabrikatlar, butlovchilarni ishlab chiqarishga

ixtisoslashayotgan, hamda asosiy biznesni ta'minlash va unga xizmat ko'rsatish vazifasini bajaruvchi yirik firmalarning subpudratchilari bo'ladilar.

Yangiliklarni yashash darajasining o'z bosqichiga bosh firmadan kurtaklab chiqqan ("spin ofat") deb ataluvchi, ilmiy-texnik yangiliklarni mustaqil ravishda ishlab chiquvchi bo'linmalar ham xizmat ko'rsatadilar. Innovatsion korxonalar yana ular faoliyatining ob'ekti bo'lgan innovatsiyalarning ustuvor turiga ko'ra ham farqlanadilar. Masalan, ular quyidagi sinflarga bo'linadilar:

- yangi ilmiy kashfiyotlar, qo'llashning yangi usullari va pionerli (birinchi) kashfiyotlarni mo'ljallovchi etakchi innovatorlar;

- oldin qilingan kashfiyotlar asosidan tubdan yangi jarayonlar va mahsulotlarni yaratuvchi etakchi innovatorlar;

- eski usul asosida bazaviy innovatsiyalarni yaratuvchi innovatorlar;

- yangilikni ishlab chiqaruvchi, modernizatsiyalovchi va ratsionallashtiruvchi innovatorlar;

- oldingi mahsulotlar va texnologiyalarni o'rinni bosuvchi yangilikni yaratuvchi innovatorlar;

- yangiliklarni sotishlar va marketingga ixtisoslashuvchi innovatorlar;

- yangi bozorlardagi talabni qanoatlantiruvchi innovatsiyalarni yaratuvchi innovatorlar;


- xalq xo'jaligining har xil sohalarida yangiliklarning diffuziyasi, tarqatilishi va ko'paytirilishi bilan shug'ullanuvchi innovatorlar.

Innovatsion korxonalar ham ishlab chiqarilayotgan innovatsiyalarning yangiligi darajasi (tubdan yangilar, nisbatan, qisman, mahalliy yangilik yoki imitatsiyaga egalar) muvofiq ixtisoslashadilar.

Joriy yilda bo'lib o'tgan farmatsevtika sanoati korxonalari ishtirokidagi beshinchi yarmarkada "O'zfarm sanoat" tizimidagi korxonalar va bir qator ilmiy va ishlab chiqarish muassasalari o'rtasida qiymati 208 mln. So'mlik 8 ta shartnoma imzolandi. Ularni bajarish bo'yicha faol ish olib borilmoqda. 2015 yilgacha bo'lgan davrda nvestitsiya loyihalarini amalga oshirish dasturi asosida

yo'lga qo'yilgan izchil chora tadbirlar bu borada o'z yechimini kutayotgan ustuvor vazifalarni hayotga tatbiq etishda muhim dasturilamal bo'lmoqda.

“Nobel Pharmsanoat” MchJning boshqaruv strukturasini quyida ko'rishimiz mumkin. (2-rasm)



2-rasm. Korxonaning tashkiliy-tarkibiy boshqaruv tuzilmasi³¹

“O'zfarm sanoat” davlat aksiyadorlik konsernidan ma'lum qilishlaricha , ushbu korxonalar tomonidan joriy yilning 6 oyi davomida qariyb 160 mlrd so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan. Bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 121% ko'pdir.

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlar uchun qulay ishbilarmonlik muhiti yaratilayotgani ishlab chiqaruvchilarimizning bunday yuqori natijalarga erishishida va bozorlarimizni sifatli mahsulot bilan to'ldirishda muhim omil bo'lmoqda.

³¹ “Nobel Pharmsanoat” MchJ ma'lumoti.

Bu yo'nalishdagi ishlar ko'lamini yanada kengaytirish maqsadida konsern tizimida korxonalarda 23 ta yirik investitsiya dasturi bajarilmoqda. Jumladan "Jurabek Laboratories" korxonasida infuzion eritmalar ishlab chiqarish uchun qo'shimcha tsex barpo etilmoqda.

"Nasa xusudiy korxonasida" bolalarni ovqatlantirishga mo'ljallangan plastik idishlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Quyidagilar Jamiyat boshqaruv organlari hisoblanadi:

- Ishtirokchilar Umumiy Yig'ilishi;
- Direktsiya;
- Taftish komissiyasi.

- Ishtirokchilar Umumiy Yig'ilishi Jamiyatning yuqori Boshqaruv organi hisoblanadi. U Ishtirokchilar yoki ular tomonidan tayinlangan vakillardan iborat bo'ladi. Ishtirokchilar vakillari doimiy yoki ma'lum muddatga tayinlangan bo'lishlari mumkin. Ishtirokchi boshqa ishtirokchilarga ma'lum qilgan holda Umumiy Yig'ilishidagi o'z vakilini istalgan vaqtda chaqirib olish va almashtirish huquqiga ega.

- Ishtirokchilar Ustav fondidagi o'z ulushlariga proporsional nisbatda ovozga egalar.

- Ishtirokchilar Umumiy Yig'ilishiga o'z a'zolaridan saylab qo'yiladigan Rais boshchilik qiladi. Ishtirokchilarning Raislik qilish navbati Umumiy Yig'ilishi tomonidan belgilab beriladi.

- Ishtirokchilarning Umumiy Yig'ilishi zaruratga qarab yiliga kamida ikki marta o'tkaziladi. Umumiy Yig'ilishda barcha Jamiyat Ishtirokchilari yoki ular tayinlangan vakillar ishtirok etsa vakolatli hisoblanadi. Umumiy Yig'ilishni tashkil etish, o'tkazish tartibi Jamiyat Ishtirokchilari tomonidan belgilab beriladi. Umumiy Yig'ilishni o'tkazish, kun tartibi haqidagi ma'lumot, kun tartibi bo'yicha materiallar Ishtirokchilarga navbatdagi Umumiy Yig'ilish o'tkazilishidan kamida 30 kun avval va navbatdan tashqari o'tkaziladigan Umumiy Yig'ilish haqida u boshlanishidan 20 kun ilgari xabar beriladi. Bunda xabar yuborilgan kun va Umumiy Yig'ilish o'tkaziladigan kun hisobga

olinmaydi. Navbatdagi Umumiy Yig'ilish o'tkaziladigan joy Ishtirokchilar tomonidan avvalgi Umumiy Yig'ilish kuni belgilab olinadi.

- Quyidagilar faqat Ishtirokchilar Umumiy Yig'ilishi vakolati doirasiga kiradi:

- Ta'sis shartnomasini va ushbu Jamiyat Ustavini tasdiqlash va ularga o'zgartirishlar kiritish;

- Ustav fondiga ulushlarni qo'shish tartibi va muddatini o'zgartirish, Ustav fondini ko'paytirish yoki kamaytirish;

- Jamiyat Ishtirokchilarini qabul qilish va chiqarib yuborish;

- Jamiyat tomonidan Ishtirokchi ulushini sotib olish masalasi, Ishtirokchi o'z ulushini ikkinchi Ishtirokchiga yoki uchinchi shaxsga berishi haqidagi masalani hal etish;

- Ishtirokchilar tomonidan qo'shimcha ulush to'lash miqdori, shakli va tartibini belgilash;

- Jamiyatni tugatish haqida qaror qabul qilish, tugatish komissiyasi tayinlash, tugatish balansini tasdiqlash;

- Jamiyat ichidagi munosabatlarni belgilab beruvchi me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash;

- Jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlarini aniqlash, uning rejalari va hisobotlarini tasdiqlash, yillik moliyaviy hisobotni va boshqarish haqidagi yillik hisobotni, buxgalteriya balanslari va Jamiyat daromadi hamda zararini tasdiqlash;

- Taftish komissiyasi a'zolarini saylash va chaqirib olish, Bosh direktorni, direktor o'rinbosarini, Jamiyat bosh hisobchisini, shu'ba korxonalari, shahobchalar va vakolotxonalar rahbarlarini tayinlash hamda ozod qilish, ular mehnatiga hak to'lash shartlarini belgilash;

- Jamiyat foyda va zararlarini taqsimlanishini, foyda (daromad)ni taqsimlanishini tasdiqlash, zararlarini o'rnini qoplash tartibini belgilash, Jamiyatning, shu jumladan shahobchalarning yillik faoliyat natijalarini, shuningdek taftish komissiyasi hisoboti va hulosalarini tasdiqlash,

jamg'armalarni tashkil qilish va ulardan foydalanish tartibini tashkil qilish bilan bog'lik masalalar;

- shahobchalar, shu'ba korxonalar barpo etish, qayta tashkil etish va tugatish, ular haqidagi nizomlarni (ustavlarni) tasdiqlash;

- auditorni tayinlash;

- Jamiyat boshqaruv organlari mansabdor shaxslarni mulkiy javobgarlikka tortish haqida qaror qabul qilish;

- Ishtirokchilar Umumiy Yig'ilishini o'tkazish qoidalarini va Jamiyatning boshqa ichki hujjatlarini tasdiqlash, tashkiliy tizimini belgilash, yig'ilish o'tkazish tartibini tasdiqlash;

- quyidagi mavzulardagi yirik bitimlarni tuzish:

- Jamiyat tomonidan bitim tuzishga qaror qilingan kunda narxi Jamiyat aktivlari balans narxining 50%dan (ellik foizdan) oshmaydigan, Jamiyat tomonidan bevosita yoki bilvosita mol-mulk ajratib olish haqidagi bir yoki bir necha o'zaro bog'lik bitimlar tuzish;

- O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida ko'zda tutilgan boshqa masalalarni echish.

- Jamiyat faoliyati asosiy yo'nalishlarini belgilash, uning rejalari hamda ularning bajarilishi haqidagi hisobotlarini tasdiqlash, ta'sis hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, Jamiyat qayta tashkil etish yoki tugashi to'g'risidagi masalalar bo'yicha qarorlar Ishtirokchilarning 100% dan iborat bo'lgan ovoz bilan qabul qilinadi, qolgan masalalar bo'yicha oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

- Direktsiya Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qiladi.

- Direktsiya tarkibiga Bosh direktor, direktor o'rinbosarlari, Jamiyatning bosh hisobchisi kiradi. Bosh direktor bir vaqtning o'zida Jamiyat Umumiy Yig'ilishining raisi, Taftish komissiyasining a'zosi bo'lishi mumkin emas. Bosh direktor besh yil muddatga tayinlanadi. Bu lavozimga qayta tayinlanishi mumkin. Direktsiya tarkibi Ishtirokchilar Umumiy Yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi. Direktsiya ushbu Ustavda, Ta'sis shartnomasida, yollash

shartnomasi, Direktsiya haqidagi nizomda, Ishtirokchilar Umumiy Yig'ilishining boshqa qarorlarida, amaldagi qonunlarda belgilab berilgan vakolat va huquq doirasida Jamiyat faoliyatiga rahbarlik qiladi. Direktsiya Ishtirokchilar Umumiy Yig'ilishi oldida hisobot beradi va uning qarorlarini bajarilishini tashkil etadi. Direktsiya Jamiyat Ishtirokchilari bajarishi shart bo'lgan qarorlar qabul qilish huquqiga ega emas;

- direktsiya moliyaviy yil yakunlangach ikki oy muddat ichida Umumiy Yig'ilishga Jamiyatning yillik balansini, daromad va zarar hisobini, yillik hisobotini taqdim etishi shart. Joriy qarorlar qabul qilish uchun Direktsiya o'suvchi natija bilan Jamiyatning oraliq-har chorakdagi buxgalteriya balansini olib boradi;

- Taftish komissiyasi a'zolari uch kishidan iborat tarkibda bir yil muddatga tayinlanadalar. Taftish komissiyasi a'zolarini bir necha marta tayinlanishiga ruxsat beriladi. Ishtirokchilar Umumiy Yig'ilishi qarori bilan Taftish komissiyasi a'zolarining vakolatlari muddatidan oldin to'xtatilishi mumkin. Taftish komissiyasining a'zosi o'z faoliyatini to'xtatgan taqdirda, Ishtirokchilar Umumiy Yig'ilishi darhol uni almashtiradi;

- Taftish komissiyasi kamida yiliga bir marta Jamiyat moliyaviy-xo'jalik faoliyatini taftish qiladi hamda yillik hisobot va balans bo'yicha o'z xulosasini tayyorlaydi. Bunday xulosasiz yillik balans Ishtirokchilar Umumiy Yig'ilishi tomonidan tasdiqlanmaydi;

- Taftish komissiyasiga o'z a'zolari ichidan saylangan Taftish komissiyasi raisi rahbarlik qiladi. Taftish komissiyasining qarorlari ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. Xar bir a'zo bitta ovozga ega;

Taftish komissiyasi oddiy ish kuni davomida Jamiyatning buxgalteriya va hisobot hujjatlarini tekshirish va ulardan nusxa ko'chirish huquqiga ega.

Har bir korxona va tashkilotning kuch-qudratini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri bu – ijtimoiy-iqtisodiy hamda moliyaviy ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Quyida biz “Nobel Pharmsanoat” MchJning ijtimoiy-iqtisodiy hamda moliyaviy ko’rsatkichlari ko’rishimiz hamda tahlil qilishimiz mumkin bo’ladi.

3-jadval.

Korxona faoliyatining asosiy iqtisodiy ko’rsatkichlari³²

№	Ko’rsatkichlar	O’lchov birligi	2012	2013	2014
1.	Mahsulot ishlab chiqarish xajmi	mln.so’m	3821.3	41563	44542
2.	Sotilgan (mahsulotlar) tovarlar	mln.so’m	28259.7	33698.5	35768.2
3	Soliq to’langungacha bo’lgan foyda	mln.so’m	97254.2	99127.4	10776.9
4	Sof foyda	mln.so’m	8035.8	8289.7	8354.8
5	Davr harajatlari	mln.so’m	9236.2	9421.3	9514.2
6	Ishchi – xodimlar soni	kishi	100	105	107
7	Shu jumladan asosiy ishlab chiqarish xodimlari	kishi	72	68	70
8	O’rtacha ish xaqi	so’m	270000	290000	310000

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridab ko’rinib turibdiki, ko’rsatkichlarning barchasi o’sish dinamikasiga ega. Mahsulot ishlab chiqarish hajmi 2014 yilda bazis yilga nisbatan 7,1 %ga o’sgan. Korxonaning sof foydasi esa 2014 yilda 2013 yilga nisbatan 3,9 %ga o’sgan. Buning asosiy sababi esa davlat tomonidan tibbiy sohaga nisbatan berilayotgan fiskal imtiyozlardir. Davr harajatlari ham o’sib borgan. Buning sababi ishlab chiqarish hajmining oshganligidir.

Ishchi xodimlar soni ham so’nggi uch yil davomida 7 taga ko’paygan. Bu esa qisman bo’lsada bandlikni ta’minlanganligini ko’rsatadi. O’rtacha ish haqi ham yillar bo’yicha o’sish dinamikasiga ega. Ya’ni o’rtacha ish haqi 2014 yilda 2013 yilga nisbatan 6,8 %ga oshgan.

³² “Nobel Pharmsanoat” MChJ ma’lumotlari

4-jadval.**Korxona xodimlarining tarkibining tahlili³³**

№	Xodimlar	2012		2013		2014	
		kishi	%	kishi	%	kishi	%
1.	Asosiy ishlab chiqarish xodimlari	72	72	68	64.8	75	70.1
2.	Yordamchi ishlab chiqarish xodimlari	15	15	22	20.9	16	15
3.	Injener-texnik xodimlar	6	6	8	7.6	9	8.4
4.	Ma'muriy-boshqaruv xodimlari	7	7	7	6.6	7	6.55
	Jami	100	100	105	100	107	100

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, korxonadagi aksariyat ishchi xodimlar soni o'sish tendensiyasiga ega. Faqatgina yordamchi ishlab chiqarish xodimlari 2014 yilda 2013 yilga nisbatan 6 nafarga qisqargan yoki 72,7% ni tashkil etgan. Buning asosiy sababi esa bazi funksional vazifalarni boshqa ishchi xodimlarga yuklatilganligidir.

5-jadval.

**Korxonaga qo'yilgan investitsiyalarni amalga joriy etilishi tahlili
(investitsiyalar hajmining tovar mahsulot ishlab chiqarish xajmiga nisbati).³⁴**

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2012	2013	2014
1.	Investitsiyalar hajmi	AQSh \$	6.600000	9.300000	11.200000
2.	Tovar mahsulot hajmi	mln.so'm	39562	42621	44542
3.	Investitsiyalar darajasi	%	100	100	100

Jadvalda korxonaga jalb etilgan investitsiyalarni yillar bo'yicha o'sib borayotganini ko'rishimiz mumkin. Xususan, 2014 yilda jalb qilingan

^{33,4} “Nobel Pharmsanoat” MchJ ma'lumotlari

investitsiyalar hajmi 2013 yilga nisbatan 20,4%ga o'sgan. 2012 yilga nisbatan esa 69,6%ga o'sgan. Buning asosiy sababi mamlakatimizda biznesni yo'lga qo'yish uchun davlat tomonidan yaratib berilayotgan qulay sharoitlar hamda tibbiyot sohasiga be'rilayotgan moliyaviy hamda iqtisodiy imtiyozlardir. Mahsulot va tovarlar hajmiga nisbatan kiritilgan investitsiyalar hajmi esa 2014 yilda bazis yilga nisbatan 4,5%ga oshgan. Buning asosiy sabablaridan biri esa Mahsulotning assortimentini ko'paytirishga erishilganligidir.

6-jadval.

Korxonada xarajatlar va daromadlar balansi (so'm).³⁵

Ko'rsatkichlar nomi	2012	2013	2014
1. Sotishdan sof foyda	29 359 607	38 036 281	50 677 023
2. Sotilgan mahsulot ishlab chiqarish tannarxi	17 265 874	25 212 462	32 711 376
3. Sotishdan yalpi moliyaviy natija	9 853 627	12 828 819	17 965 647
4. Davr xarajatlari	5 692 574	7 307 338	9 514 210
5. Sotish xarajatlari	3 105 763	4 473 747	5 702 247
6. Mehnatga xaq to'lash xarajatlari	987 562	1 267 640	2 102 505
7. Asosiy fondlar amortizatsiyasi	15 275	22 326	22 326
8. Soliqlar va ajratmalar	4 376 582	6 324 715	10 776 887
9. Boshqa xarajatlar	1 323 542	1 565 951	1 709 458
10. Moliyaviy faoliyat xarajatlari	963 549	2 953 020	4 349 515

Yuqoridagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, korxonaning daromadlari xarajatlariga nisbatan proportsional ravishda o'sib borgan. Korxonaning sotishdan olgan sof foydasi 2014 yilda 2013 yilga nisbatan 33,2%ga o'sgan. Buning sababi, korxonaning mahalliy hamda jahon bozorida mahsulotlarni sotish hajmining oshganidir. Korxonaning sotish xarajatlari 2014 yilda 2012 yilga nisbatan 83,6%ga oshgan. Buning asosiy sababi esa qo'shimcha ko'zda tutilmagan xarajatlarning ko'paygani hamda yetkazib berish bilan bog'liq xarajatlarning ham qisman ko'payganligidir.

³⁵ "Nobel Pharmsanoat" MchJ ma'lumotlari.

Korxonaning ishlab chiqarish xarajatlari tahlili³⁶

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Reja bo'yicha	haqiqat	Bajarilish darajasi, %
1.	Mahsulot ishlab chiqarish xajmi	mln.so'm	40.000000	44.542000	111.3
2.	Umumiy ishlab chiqarish xarajatlari	mln.so'm	33.350000	32.681506	97.9
3.	Ishlab chiqarish tannarxi	mln.so'm	32.584000	35.768200	109.7
4.	Zaruriy foyda	mln.so'm	10.000000	10.776900	107.7
5.	Davr xarajatlari	mln.so'm	9.700000	9.514210	98
6.	Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar	mln.so'm	4.452000	4.349500	97.7

Yuqoridagi jadvalni tahlil qiladigan bo'lsak, unda korxonaning ishlab chiqarish xarajatlarining ba'zilar rejada ko'zda tutilgandan ko'ra haqiqatda ko'proq, ba'zilar esa kamroq summani tashkil qilgan. Xususan, mahsulot ishlab chiqarish hajmi rejadan ko'proqni tashkil qilgan bo'lsa, ya'ni 11,3% ga ko'proqni tashkil qilgan, umumiy ishlab chiqarish xarajatlari esa rejada ko'zda tutilgandan ko'ra kamroqni tashkil qilgan. Buning sababi, korxonaga yangi innovatsion texnika va texnologiyalarni joriy qilish orqali ortiqcha elektr-energiyani tejalganligidir. Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar ham haqiqatda rejaga nisbatan kam ko'rsatkichga ega. Buning sababi deb, tibbiyot sohasiga davlat tomonidan soliqlardan berilayotgan imtiyozlar hamda bu sohani rivojlantirish, eksport salohiyati orttirish maqsadida amalga oshirilayotgan moliyaviy chora-tadbirlarning qo'llanilayotganini ko'rsatishimiz mumkin bo'ladi.

Bugungi kunda "Nobel Pharmsanoat" MChJ faoliyatidagi xarajatlarni kamaytirish hamda daromadni oshirish maqsadida modernizatsion hamda innovatsion texnika-texnologiyalardan foydalanish strategiyasi ishlab chiqqan bo'lib, ular tejamkorligi hamda kamxarajatliligi bilan ishlab chiqarishda samarali hisoblanadi.

³⁶ "Nobel Pharmsanoat" MchJ ma'lumotlari

Ushbu holat iqtisodiyotga sarflanayotgan investitsiyalarning asosiy fondlarni zamonaviylashtirishga, tubdan yangilashga sarflash va samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Demak, mamlakatimizda tarkibiy o'zgarishlarni va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish jarayonlarining davom ettirilishi barqaror va mutanosib iqtisodiy o'sishni ta'minlash, milliy iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini oshirish hamda jadal taraqqiyotga erishishning muhim omili hisoblanadi.

8-jadval.

2009-2014 yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash bo'yicha eng muhim loyihalarni amalga oshirish chora-tadbirlari dasturi (so'm).³⁷

Investitsiyalarning yo'nalishi	Loyihalarning umumiy qiymati	O'z mablag'lari	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	Tijoart banklari kreditlari
Yangi qurilish	15395	2795	468	12132
Modernizatsiya va tiklash	6419	2922	1051	2446
Boshqa yo'nalishlar	1160	101	-	1059
Jami	22974	5818	1519	1059
Ishlab chiqarish bosqichidagi yangi innovatsiya loyihalari				
Yangi qurilish	9580	2624	942	9014
Modernizatsiya va tiklash	2409	936	182	1292
Boshqa yo'nalishlar	256	-	-	256
Jami	12245	3560	1124	7561

³⁷ "Nobel Pharmsanoat" MchJ ma'lumotlari

III-BOB. MAMLAKATIMIZDA OLIB BORILAYOTGAN INVESTITSIYA SIYOSATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASIDAN FOYDALANISH

3.1. Investitsiyalarni jalb qilish, yo'naltirish va qayta taqsimlash samaradorligini oshirish yo'lida jahon amaliyoti tajribalaridan foydalanish

So'nggi yillarda kuzatilgan va hali beri davom etib kelayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi global iqtisodiyotning aksariyat tarmoqlarini qamrab olishi bilan birgalikda investitsiyalar oqimiga ham sezilarli darajada o'z salbiy ta'sirini ko'rsatdi. O'z navbatida investitsiyalar oqimining pasayishi ularni moliyalashtirish manbalarining qisqarishi bilan birga jahon iqtisodiyotidagi beqarorlik va investitsion risklarning birmuncha oshishi bilan izohlanadi.

Jahon miqyosida 2010 yilda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning global oqimi 5 foizdan ko'proqqa oshishiga qaramasdan, inqirozga qadar bo'lgan davrga nisbatan uning miqdori 15 foizga past bo'lgan. Ayniqsa, global investitsiyalarning eng yuqori miqdori kuzatilgan 2007 yilga nisbatan 37 foizga pastroqni tashkil etgan. 2011 yilda esa uning miqdori 17 foizga o'sib, 1500 mlrd. AQSh dollaridan oshdi. Bu ko'rsatkich global to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimi inqirozgacha bo'lgan davr darajasiga chiqqanligidan dalolat beradi. BMTning savdo va rivojlanish masalalari konferentsiyasining (UNCTAD) baholashiga ko'ra, 2012 yilda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning o'sishi saqlab qolinib, qariyb 1,6 trln. AQSh dollarini tashkil etadi.

Investitsion oqimlarning o'sishini chegaralashi mumkin bo'lgan asosiy omillar sifatida quyidagilar ilgari surilmoqda: jahon iqtisodiyotidagi susayish va iqtisodiy o'sish sur'atlarining qisqarishi riski, Evropa mintaqasidagi qarzdorlik va byudjet taqchilligi muammolari, evro kursi taqdirining noaniqligi va moliya bozorlaridagi risklarning ortishi.

Investitsiyalarni jalb etish va ulardan samarali foydalanishda rivojlangan sanoatlashgan mamlakatlarda investitsiya siyosatini amalga oshirishda quyidagi uchta yo'nalishga alohida e'tibor bilan qaraladi:

- import o'rmini bosish strategiyasini rivojlantirish;
- tayanch tarmoqlar va eksport salohiyatining mustahkamlash;
- ilmtalab sohalar va innovatsion ishlanmalarni rivojlantirish.

Ayniqsa, e'tiborli jihat Koreya Respublikasining investitsiya strategiyasida namoyon bo'ladi. Ushbu mamlakat xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanishda shunday siyosat olib borganki, bunda Janubiy Koreyaga boshqa rivojlangan mamlakatlardan, xususan AQSh va Yaponiyadan investitsiyalar jalb qilishda ulardagi samarali menejment uslublari va ishlab chiqarish texnologiyasini o'ziga tatbiq qilishga intilgan.

Malayziyaning investitsiya siyosatida esa ustuvor jihat investitsiyalarni qayta ishlash sanoatiga yo'naltirish bo'lib hisoblanadi³⁸.

Ushbu mamlakatda investitsiyalarni ilmtalab va yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish sohalariga, jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, nanotexnologiyalar, yuqori malakali xizmatlar kabi sohalarga yo'naltirilmoqda. Xususiy sektorning o'zida investitsiyalarning yillik o'rtacha o'sishi 11-12 foizni tashkil etmokda. Ularning umumiy investitsiyalar hajmidagi salmog'i 50 foizdan ortiq bo'lib, so'nggi besh yil mobaynida xususiy investitsiyalarning umumiy miqdori 95 milliard AQSh dollaridan oshib ketgan.

Malayziyada Sanoatni rivojlantirishning bosh rejasiga asosan investitsiyalar sohasida quyidagi vazifalar belgilab olingan:

- investitsiyalarni jalb etish orqali yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan mahsulot ishlab chiqarishni jadallashtirish va ilg'or texnologik tarmoqlarni rivojlantirish;
- sanoatning ustuvor tarmoqlari rivojlanishiga ko'maklashish;

³⁸ <http://www.ved.gov.ru/articlelessayti> ma'lumotlari.

- sanoatga ilg'or texnologiyalarni, jumladan, biotexnologiyalar, nanotexnologiyalar, simsiz uzatish texnologiyalari, mikroelektromexanik tizimlari, lazer texnologiyalarini tatbiq etishni yanada kengaytirish;

- sanoatning o'sishida mehnat unumdorligi omilining rolini oshirish;

- milliy sanoatning xalqaro mehnat taqsimoti tizimiga integratsiyalashuvini chuqurlashtirish;

- ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini yanada rivojlantirish va ularni sanoatga tatbiq etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;

- iqtisodiy salohiyat va raqobatdoshlikni mustahkamlash maqsadida strategik hamkorlik va markazlashuvni rag'batlantirish.

Shu bilan birga, Malayziyada investitsion jozibadorlikni oshirish maqsadida turli soliq imtiyozlari joriy qilingan bo'lib, bunda investitsiya natijasida olingan foydaning faqat 30 foizi dastlabki 5 yil davomida soliqqa tortiladi. Ayniqsa, hududlarning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash yo'nalishida nisbatan yaxshi rivojlanmagan shtatlarda faoliyat ko'rsatuvchi investorlar foyda solig'idan dastlabki 5 yil davomida to'liq ozod qilinadi.

Yaponiyada ham investitsiya siyosatining ustuvor yo'nalishi yuksak texnologiyalarga asoslangan va resurs tejovchi ishlab chiqarishni rag'batlantirishga qaratilgan. Umuman olganda, Yaponiyaning rivojlanishi

aynan ilmtalab sohalarning rivojlantirilishi hamda samarali ishlab chiqarish texnikalarining tatbiq etilishiga tayanadi.

Yaponiyaning dastlabki rivojlanish davri tajribasi shuni ko'rsatdiki, nafaqat yangilik yaratish uchun kapital zarur, balki kapitaldan foydalanish uchun ham yangilik zarur bo'ladi. Ushbu ikkala yo'nalish bir-biri bilan uzviy bog'liq va o'zaro bir-birini to'ldirib turadi. Bu holat shunday izohlanadi, ya'ni yangilik yaratish uchun muayyan kapital zarur bo'lsa, mavjud kapitaldan samarali foydalanish uchun yangilik kiritilishi taqozo qilinadi.

Taraqqiy etgan mamlakatlar iqtisodiyotidagi yana bir ahamiyatli jihat investitsiya jarayonida yirik transmilliy kompaniyalarning faol ishtiroki, moliya

bozorining yuqori rivojlanganligi, xususan, qimmatli qog'ozlar muomalasining keng tarqalganligi, turli jamg'armalarning investitsiya faoliyatiga jalb qilish mexanizmining yuqori darajada tarkib topganligi bilan ajralib turadi.

Rivojlangan mamlakatlar investitsiya faoliyatida boy tajriba to'plangan bo'lib, undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish investitsiyalash amaliyotini takomillashtirish va investitsiyalarning samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini beradi. Bu borada bir qator rivojlangan mamlakatlarda investitsiya me'yorining nisbatan yuqori va barqaror darajasiga erishilganligining guvohi bo'lamiz.

Shu bilan birga, investitsiyalardan samarali foydalanishda bir qator rivojlangan mamlakatlar tajribasi bilan tanishganda, investitsiyalar asosan ilg'or texnologiyalarni joriy etish, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish, resurs tejovchi va ekologik talofati kam bo'lgan, mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qiluvchi sohalarga yo'naltirilayotganining guvohi bo'lamiz.

3.2. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini va yetakchi tarmoqlarini investitsiyalar yordamida rivojlantirish va uni boshqarish

Mamlakatimizda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy ta'siriga qaramasdan, yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlari va makroiqtisodiy barqarorlik ta'minlanib kelinayotgani iqtisodiyotni isloh qilish bo'yicha biz tanlagan modelning naqadar to'g'ri va hayotiy asosga ega ekanini yana bir bor tasdiqlamoqda.

Yuritimizdagi makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sishni o'zida aks ettiradigan ko'rsatkichlar islohotlar strategiyasining muvaffaqiyatini, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarida erishilgan yutuqlarning amaliy ifodasidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonning ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasining majlisidagi

ma'ruzalarida korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash ishlarini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 11 maydagi PF-3751 sonli farmoniga ko'ra tashkil etilgan O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining roli ortib borayotgani qayd etib o'tildi.

Iqtisodiyotning yetakchi, eng avvalo bazaviy tarmoqlarini modernizatsiya qilish va texnikaviy qayta qurollantirish loyihalari amalga oshirilishini ta'minlash, mamlakatni muttasil, barqaror va mutanosib ravishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga erishish, shuningdek, samarali tarkibiy va investitsiyaviy siyosatni amalga oshirish maqsadida tashkil etilgan mazkur jamg'arma o'ziga yuklatilgan vazifalarni muvaffaqiyatli ado etib kelmoqda.

Fondning nizom jamg'armasini 5 milliard dollardan 2014 yilga qadar bosqichma-bosqich 10 milliard dollarga yetkazish bo'yicha qabul qilingan qaror ijrosi natijasida 2012 yil boshiga kelib uning miqdori 9 milliard dollardan oshib ketdi. Investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun 2009 yilda 245,5 million dollar, 2010 yilda esa 330 million dollarlik jamg'arma mablag'lari o'zlashtirildi.

2012 yilda jamg'arma chet ellik investorlar bilan hamkorlikda Ustyurt GKK qurilishi, Sho'rtan GKKda sintetik suyuq yoqilg'i ishlab chiqarishni tashkil etish, "Muborak gazni qayta ishlash zavodi" unitar sho'ba korxonasida gaz-kimyó kompleksini ishga tushirish, Tollimarjon IES quvvatini oshirish loyihalarini moliyalashtirishda ishtirok etadi.

Hammasi bo'lib jamg'arma Navoiy va Olmaliq TMKlarida, "O'zneftgaz" MXK, "O'zbekiston Temir yo'llari" DATYK, "O'zbekiston havo yo'llari" MAK, "O'zkimyosanoat" DAK, "O'zbekenergo" DAK tizimida va boshqa yo'nalishlarda yangi quvvatlarni yaratish bo'yicha 444,55 million dollar mablag' bilan, mavjud quvvatlarni modernizatsiya va rekonstruktsiya qilish borasidagi loyihalarni amalga oshirishda esa 167,85 million dollarlik mablag' bilan ishtirok etishi ko'zda tutilgan.

2011-2015 yillarda tarkibiy o'zgarishlarni, iqtisodiyotning soha va tarmoqlarini diversifikatsiya va modernizatsiya qilishni izchil davom ettirish,

ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash, shuningdek, transport, muhandislik, kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish jarayonlarini yanada chuqurlashtirishga qaratilgan faol investitsiya siyosati olib boriladi.

Ushbu maqsadlar uchun 2011-2015 yillar davomida oxirgi besh yil mobaynida o'zlashtirilgan investitsiyalarga qaraganda 2 barobar ko'p, jami 77,4 milliard dollar miqdoridagi investitsiyalarni yo'naltirish mo'ljallanmoqda. Asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushi 24 foizdan kam bo'lmasligi tarkibiy o'zgartirishlarni jadal amalga oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiya qilishni ta'minlaydi.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning asosiy hajmi ichki resurslarni safarbar qilish hisobidan amalga oshiriladi. Kelgusi yillarda bu ko'rsatkich yalpi kapital qo'yilmalar hajmining 76 foizini tashkil etadi. Bu mablag'lar, avvalo, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashni amalga oshirayotgan korxonalarning o'z mablag'larini ko'paytirishi, soliq yukini yanada kamaytirish, tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash va aholining tadbirkorlik faoliyatidan oladigan daromadlarini oshirish hisobidan hosil bo'ladi.

Strategik muhim, birinchi navbatda, infratuzilmani shakllantirish, ishlab chiqarishni rekonstruktsiya qilish va modernizatsiya etishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirishga ichki resurslarni jalb etishda O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi alohida o'rin egallaydi. Mazkur jamg'armaning tarkibiy o'zgarishlardagi tobora ortib borayotgan rolini inobatga olgan holda, yaqin yillarda uning hisobida 10 milliard dollardan ziyod mablag' jamlanadi.

2011-2015 yillarda yoqilg'i-energetika tarmog'ini, mashinasozlik va avtomobilsozlikni rivojlantirish, elektr energetika sohasida energiya ishlab chiqarish quvvatlarining samaradorligini oshirish va diversifikatsiya qilish, metallurgiya sanoatini kompleks modernizatsiya etish, transport va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish

uchun Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi tomonidan 4,7 milliard dollardan ziyod mablag' yo'naltiriladi.

Mazkur jamg'armaning eng muhim vazifalaridan biri strategik investitsiya loyihalarini birgalikda moliyalashtirish maqsadida yirik xorijiy investor va sheriklarni jalb etishdir. Masalan, Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi va Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida amalga oshirilayotgan, umumiy qiymati 1,28 milliard dollarga teng bo'lgan Tolimarjon issiqlik elektr stantsiyasida ikkita bug'-gaz moslamasini qurish loyihasi shular jumlasidandir. Kelgusi yillardagi ustuvor yo'nilishlardan biri mamlakatimizda, eng avvalo, jalb qilinayotgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish, chet el investorlari uchun kafolatlar yaratish hamda ularning ishonchini mustahkamlash maqsadida yanada qulay investitsiya muhitini shakllantirishdan iborat.

Bu vazifalarni amalga oshirish 2011-2015 yillar davomida 13 milliard dollardan ziyod yoki o'tgan besh yildagiga nisbatan 1,7 barobar ko'p to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini ta'minlaydi. Ushbu mablag'lar eng ilg'or texnologiyalar bilan jihozlangan va xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash hamda raqobatdosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlaydigan, mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirish hamda yangi ish o'rinlarini yaratishga xizmat qiladigan yangi sanoat korxonalarini tashkil etish bo'yicha chet el investorlari ishtirokidagi 320 tadan ortiq yirik investitsiya loyihasini amalga oshirishga yo'naltiriladi.

Bunday loyihalar haqida so'z borganda, avvalo Surgil koni bazasida Ustyurt gaz-kimyo majmuasini barpo etish, Sho'rtan gaz-kimyo majmuasida tozalangan metan bazasida suyultirilgan sintetik yoqilg'i ishlab chiqarish, Muborak gaz-kimyo majmuasini qurish, Qandim guruhi konlarini o'zlashtirib, gazni qayta ishlaydigan zavod barpo etish, Navoiy viloyatida ammiak va karbamid ishlab chiqaradigan zamonaviy kompleks qurish, avtomobil dvigatellari, katta hajmda yuk tashiydigan "MAN" avtomobillari, "Mersedes Bents" shassisi bazasida ko'p o'rinli avtobuslar, "Klaas" kompaniyasi bilan hamkorlikda qishloq xo'jaligi texnikasini ishlab chiqarishni tashkil etish, texnik

va polikristall kremniy ishlab chiqarish, tayyor mahsulot ishlab chiqarishning to'liq tsikliga ega bo'lgan vertikal integratsiyalashgan tekstil majmualarini, tayyor dori preparatlarini ishlab chiqaradigan korxonalarni barpo etish va boshqa loyihalarni qayd etish mumkin.

Iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirishda O'zbekiston yirik xalqaro moliya institutlari, hukumat tashkilotlari va xorijiy banklarni, birinchi navbatda mamlakatimiz bilan yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha o'zaro hamkorlik aloqalarini kengaytirishga katta qiziqish bildirayotgan Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Islom taraqqiyot banki, Yaponiya, Janubiy Koreya va XXR taraqqiyot banklari, qator arab davlatlarining investitsiya fondlarini jal etish masalasiga katta ahamiyat beradi.

Aynan ana shu hamkorlikning moliyaviy ko'magida kelgusi yillar davomida O'zbek milliy avtomagistrali uchastkalarini qurish, ichimlik suvi bilan ta'minlash tizimlarini barpo etish va rekonstruktsiya qilish, qishloq xo'jaligi erlarining meliorativ holatini yaxshilash, polivinilxlorid va kaustik soda ishlab chiqarish bo'yicha yangi majmua barpo etish, qishloq xo'jaligi texnikasi va avtomobil shinalarini ishlab chiqarishni tashkil etish kabi ko'plab loyihalar amalga oshiriladi.

Bir so'z bilan aytganda, 2011-2015 yillarda jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi 18,6 milliard dollarni tashkil etishi yoki o'tgan besh yildagiga nisbatan 2 barobar ko'p bo'lishi prognoz qilinmoqda. Ularning 75 foizdan ortig'ini to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar tashkil etadi. Bu borada qarz mablag'lari uzoq muddatli asosda faqat ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmalarini rivojlantirish, iqtisodiyotning strategik tarmoqlarini modernizatsiya qilish, shuningdek, xorijiy moliyaviy institutlarning kredit liniyalarini mamlakatimiz tijorat banklari orqali qayta moliyalashtirish yo'li bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga jalb etiladi.

XULOSA

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida davlatni ilmiy-texnika siyosatining mohiyati respublika ichki talabini tez qondiradigan, jahon bozorida raqobatbardosh bo'la oladigan, iqtisodiyot tarmoqlarini tubdan yangilanishiga imkon beradigan ilmiy texnologik tadqiqotlarga, innovatsion jarayonlarga ko'maklashishdir.

Investitsiyalar zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan kurollanish, ilmiy-texnik, ishlab chiqarish va aqliy imkoniyatlarini tiklashning asosiy vositadir. Aynan xorijiy investitsiyalar orqali milliy iqtisodiyot jonlanib, ishlab chiqarish zamonaviy, raqobatdoshlar tovarlar ishlab chiqarishga ixtisoslashib boradi. Bu esa o'z navbatida yangi ish o'rinlarining tashkil etilishi va mamlakatdagi mavjud iqtisodiy va ijtimoiy muammolarning hal bo'lishiga olib keladi.

Investitsiya munosabatlarining davlat tomonidan tartibga solinishi huquqiy sharoitlar yaratish, ushbu faoliyatni yuritish uchun kafolatlar berish, bu faoliyat sub'yektlarini sug'urtalash va boshqa vositalar orqali ijtimoiy yoki davlat manfaatlarini amalga oshirish yo'lida tashkil etiladi.

Xorijiy investitsiyalar - bu chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutlaq boshqa davlat iqtisodiyotining, tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklardir. Xorijiy investitsiyalar qo'shma korxonalar tashkil etish, xorijiy investorlarga to'liq tegishli bo'lgan korxonalarni yaratish, xususiylashtirishda qatnashish, xorijiy sheriklar bilan bank tuzish, qimmatli qog'ozlarni sotib olishi, er va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish huquqiga ega bo'lishda, erkin iqtisodiy hududlarda faoliyat olib borishda juda katta va muhim ahamiyatga egadir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning asosiy va aylanma ishlab chiqarish fondlarida investitsiyalarni moliyalashtirishning o'ziga xos manbalari shakllantirilgan bo'lib, bunday manbalar korxonalarning o'z- o'zini moliyalashtirish tamoyillariga asoslanadi.

Har qanday mamlakatda maqsadga muvofiq investitsiya siyosatini yuritish iqtisodiyotning barcha sohalari va tarmoqlarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Jahondagi xorijiy investitsiyalarni jalb qilish amaliyotini, modellarini chuqur o'rganish va ularning ilg'or tajribasini mamlakatimizning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda ijodiy qo'llash muhimdir.

Rivojlangan mamlakatlar investitsiya faoliyatida boy tajriba to'plangan bo'lib, undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish investitsiyalash amaliyotini takomillashtirish va investitsiyalarning samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarning jalb etilishi uning iqtisodiy imkoniyatlarining kengayishini tezlashtirib, barcha sohalarda ichki imkoniyat va rezervlarni ishga solish, yangi texnika va texnologiyani, eksportbop tovarlarni o'zlashtirish, ularni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish orqali davlatimiz iqtisodiy qudratini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga investitsiyalarni jalb qilish borasida qator muammolar va kamchiliklar mavjud:

- investitsiya infratuzilmasining rivojlanmaganligi-banklar, investitsiya fondlari, sug'urta va lizing kompaniyalari faoliyatini rag'batlantirish va investitsiya loyihalarini amalga oshirishda ularning ishtirokini samarali yo'lga qo'yish;

- tadbirkorlarning biznes-ko'nikmalari, shu jumladan, investitsiya loyixalari bilan ishlash tajribasi va xuquqiy bilimlarining yetarli emasligi-xududlarda konsalting, marketing va yuridik xizmat ko'rsatuvchi markazlar tashkil etish va faoliyatini rivojlantirish;

- investitsiya takliflari va loyixa texnik-iqtisodiy asoslarining belgilangan talablarga javob bermasligi-tadbirkorlarga investitsiya loyixalarini ishlab chiqishda tijorat banklari, xududlardagi savdo-sanoat palatasi va boshqa mas'ul

idoralar tomonidan amaliy yordam ko'rsatilishini mahalliy xokimliklar tomonidan tashkil etish va doimiy nazoratga olish;

- mamlakatning ayrim hududlarida infratuzilmaning rivojlanmaganligi;

- mamlakat investitsion muhitining baholashda investitsiya muhitini baholash agentliklarini mavjud emasligi, ushbu sohada malakali kadrlarni mavjud emasligi;

- TTXIni asosan tabiiy resurslar qazib olish bilan bog'liq bo'lgan neft-gaz va neft-kimyo sanoatiga qaratilganligi, ya'ni mashinasozlik va elektrotexnika, farmatsevtika, qurilish materiallari kabi sanoat tarmoqlariga kiritilayotgan investitsiyalarning ulushi kamligi.

- rivojlangan hududlarga nisbatan sust rivojlangan hududlarga bo'lgan xorijiy kapital qo'yilmalarning kamligi; investitsiyalarning hududiy bir yoqlamalik xususiyatini oldini olish maqsadida, viloyatlarni rivojlanganlik darajasi bo'yicha uch guruhga bo'lib, sust rivojlangan mintaqalarga investorlar uchun ko'proq manfaatdorlik, moyillik yaratish.

Tadqiqotlar natijasida aniqlangan muammolarni xal etish va investitsiya samaradorligini oshirishga qaratilgan quyidagi ilmiy tavsiya va amaliy takliflar amalga oshirilishi zarur deb hisoblaymiz:

Investitsiya muhitini yaxshilashda quyidagi chora – tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvoqdir:

1. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va tartibga solishda qonun va me'yoriy xujjatlarni takomillashtirish;

2. Mamlakatdagi va korxonalar doirasidagi kadrlar salohiyatini oshirish;

3. Ichki bozorda o'z faoliyatini olib borayotgan milliy korxonalarni aniq axborot bilan ta'minlanishini yaxshilash;

4. Yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish va faoliyat yuritayotgan xo'jalik sub'yektlarni legallashtirish;

5. Mamlakatdagi rivojlanish darajasi pastroq bo'lgan mintaqalarga moliyaviy mablag'lar ajratish;

6. O'zbekiston Respublikasida Investitsion loyihalarni baholash maqsadida investitsion agentliklarni tashkil etish.

Investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi chora – tadbirlarni qayd etish mumkin:

- Aholi bo'sh pul mablag'larini investitsion jarayonlarga jalb
- qilish maqsadida qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlantirish, turli
- qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish;
- Investitsion loyihalarni sifatini oshirish maqsadida doimiy
- ravishda investitsion loyihalar ko'rgazmasini tashkil qilish.
- Iqtisodiyotimizda TTXIlardan oqilona va samarali
- foydalanish bo'yicha quyidagi takliflarni berish mumkin:

- investitsiyalarning hududiy bir yoqlamalik xususiyatini oldini olish maqsadida, viloyatlarni rivojlanganlik darajasi bo'yicha uch guruhga bo'lib, sust rivojlangan regionlarga investorlar uchun ko'proq manfaatdorlik, moyillik rag'batlarini yaratish.

Bugungi kunda eksportni rivojlantirish bu investitsion faoliyatni rag'batlantirishga yo'naltirilgan davlatning umumiy iqtisodiy siyosatining ajralmas bir qismidir.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etilishi iqtisodiyot mamlakatimiz iqtisodiyotini tubdan tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya qilish, qisqa muddatda mutlaqo yangi, lokomotiv rolini bajaradigan tarmoqlarni barpo etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash dasturlarini amalga oshirish, zamonaviy bozor infratuzilmasini shakllantirish borasida o'z vaqtida boshlangan, chuqur o'ylangan va uzoq istiqbolga mo'ljallangan ishlarni yo'lga qo'yish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va natijada mamlakat aholisining turmush darajisini ko'tarilishi va daromadlarini oshishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasining qonunlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: 2014 y.
2. O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida" Qonuni. 30.04.1998 y. NORMA tizimi.
3. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni., 24.12.1998 y.//. NORMA tizimi.
4. O'zbekiston Respublikasining "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va himoya qilish choralari to'g'risida"gi qonuni.//O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik to'g'risidagi qonun hujjatlari: II-kitob.- T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi", 1999. - 154-160-betlar
5. O'zbekiston Respublikasining "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi Qonuni. "Xalq so'zi" gazetasi, 2000 yil 13 iyun.
6. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlar faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi qonuni.//O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qonunchilik hujjatlari to'plami. - T.: O'zbekiston, 2002. - 46-72-betlar.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora- tadbirlari dasturi to'g'risida", 2008 yil 28 noyabr, PF-4058-son.//NORMA tizimi
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori "O'zbekiston Respublikasining 2010 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida" //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009 y., 52-son, 560-modda)

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 23.03.2010 y. № PQ-1306 "2010 yilda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish dasturi to'g'risida"
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 26.11.2010 y., № PQ-1438 " 2011-2015 yillarda respublika bank-moliya tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori reyting ko'rsatkichlariga erishishining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 15.12.2010 y., № PQ-1442 "2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 24.12.2010. y., № PQ-1449 "O'zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 27 dekabrda gi "O'zbekiston Respublikasining 2012 yilgi investitsiya dasturi to'g'risida" gi PQ-1668-sonli Qarori.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 30.12.2011 y., № PQ-1675 "O'zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida", NORMA tizimi.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 aprelda gi "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid ko'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-4434- sonli Farmoni.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 13 aprelda gi PF-4436-son Farmoni "Angren" maxsus industrial zonasini barpo etish to'g'risida"/O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, № 16, 2012 yil 23 aprel, 5-6 betlar.
17. I.A.Karimovning 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar

strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi./-Toshkent:O'zbekiston, 2014-64b

18. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish - yo'lida. - T.: "O'zbekiston", 1995. - 269 b.

19. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-T.: "O'zbekiston", 1997.-326 b.

20. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. - T.: "O'zbekiston", 1999 y.- 48 b.

21. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Islohotlar va Investitsiyalar bo'yicha idoralararo muvofiqlashtirish kengashining 2000 yil 13.fevraldagi yig'ilishida qilgan ma'ruzasi. «Xalq so'zi» gazetasi, 2000 yil, 2 fevral.

22. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. - T.: "O'zbekiston", 2005. - 96 b.

23. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, moliyaviy barqarorlik to'g'risida.-T.: O'zbekiston, 2005.-11 bet.

24. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari./I.A. Karimov. - T.: O'zbekiston, 2009. - 56 b.

25. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. /I.A.Karimov. - T: O'zbekiston, 2010 y. - 80 b.

26. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz tarakkiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. /I.A.Karimov. - T: O'zbekiston, 2011. - 48 b.

27. Karimov I.A. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida"//T.:O'zbekiston, 2011, 418-bet.

28. Karimov I.A. 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi //2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda

O'zbekistonni ijtimoiy — iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasi majlisidagi ma'ruza. - "Xalq so'zi", 2012, 20 yanvar.

29. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish//2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasining majlisidagi ma'ruzasini. –“Ishonch”, 2013, 18 yanvar, №8.

II. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar.

1. Вахабов А.В, Разикова Г. “Модернизация экономики” Учебное пособие.-/Издательство “ИҚТИСОД-МОЛИЯ”,2014.-Стр. 62,91,109,129,144.

2. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi oqibatlarining oldini olish va respublikaning barqaror rivojlanishini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar. Barqaror iqtisodiy rivojlanishning istiqboldagi ustuvor yo'nalishlari va 2010 yilgi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga erishish omillari hamda dolzarb masalalari // Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari rahbarlarining mintaqaviy seminari materiallari. T.: 2010.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasidagi "Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. - Toshkent: Iqtisodiyot. -2011-258 bet.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "2012 yil Vatanimiz

taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma.- T.: Iqtisodiyot. - 2012., 283 b.

5. Ахметзянов И. Р. Анализ инвестиций: методы оценки эффективности финансовых вложений. — М.: Эксмо, 2007. — 272 с

6. Бродский М.Н., Костенко СИ. Инвестиции как источник конкурентоспособности //Учение записки Института права С.Петербургского государственного университета экономики и финансов./Под ред. А.А.Ливревского. 2001. Вип. 6. С.95.,

7. Бирман Г., Шмидт С. Капиталовложения: Экономический анализ инвестиционных проектов / Пер. с англ. Под ред. Л.П. Белих. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2003.-631с.

8. Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Mo'minov N.G. Xorijiy investitsiyalar. - T.: "Moliya". - 2010. 177, 282, 283, 328-6.

9. Игониная Л.Л. Инвестиции: Учебное пособие.- М.: Экономист, 2004.-С.370-374.

10. Иностранные инвестиции: мировой опыт. Информационное пособие. 4.2 /Под общ.ред. Б.Г.Дякина. М.: РОСБИ, 2007. - С. 125-126

11. Инвестиции: Системный анализ и управление. /Под ред. проф. К.В.Балдина. — 2-е изд.- М.: «Дашков и К», 2007.- 288 с.

12. Инвестиции: учеб./А.Ю. Андрианов, СВ. Валдайцев, П.В. Воробев и др. – 2-е изд., перераб. и доп. –М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2008. – с.58.

13. Кейнс Дж.М. Общчая теория занятости, процента и денег: Избранное,.М.: Эксмо, 2007 г. с.171, 173.

14. Ковалев В.В. Методы оценки инвестиционных проектов.— М.:Финанси и статистика, 2008. — 144с.

15. Липсиц И. В., Коссов В. В. Экономический анализ реальных инвестиций: учебник. –3-е изд., перераб. и доп. –М. : Магистр, 2007. –383 с.

16. Маренков Н. Л. Основы управления инвестициями: Учебник. Изд. 2-е, стереотипное. — М.: Эдиториал УРСС, 2007. - 480 с.
17. Maxmudov N.M, Madjidov Sh.A. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2010. - 86-6.
18. Muminov B.Sh. "O'zbekiston iqtisodiyotida markazlashgan investitsiyalarning samaradorligini oshirish yo'llari". 08.00.07-"Moliya, pul muomalasi va kredit". Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent-2012 y. 11- bet.
19. N.G.Karimov va R.X. Xojimatov.: Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish". Darslik.-TDIU, 2011, 31-6.
20. N.N.Imomov Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. (O'quv qo'llanma) -T-TDIU, 2011.,-44, 188b.
21. Rashidov O.Yu. "Investitsion loyihalarni moliyalashtirish". - T.:TDIU, 2007 y. 33 bet
22. Ример М. И., Касатов А. Д., Матиенко Н. Н. Экономическая оценка инвестиций. 2-е изд./Под общ.ред. М. И. Римера. – СПб.: Питер, 2008.– 480 с.
23. Синицин О. Инвестиционный анализ. Теория выбора // Инвестиции в России. № 1-2, 2007
24. Тимченко Т.Н. Экономическая оценка инвестиций: Учеб.пособие.-М.: Изд. РИОР, 2005.-63 с.
25. Шапиро В.Д. и др. Управление проектами. СПб.: "Два Три",2006.-17 с.
26. Шевчук Д.А. Организация и финансирование инвестиций. – Ростовн/Д.: Феникс, 2006. - 272 с.
27. Шарп У., Александер Г., Бейли Дж. Инвестиции: Пер. с англ. - М.ИНФРА-М, 2007. - с.28.
28. Юлдашев Р.З. Инвестиционное обеспечение приватизированных предприятий в Узбекистане: управленческий аспект. Монография. - Т.: Иктисодиёт, 2009. - 93 с.

29. Крилов В.И. Прямые иностранные инвестиции: мотивы и препятствия//Финанси. - Москва, 2001. - № 2. - С. 64 - 67.
30. Mamatov M. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning nazariy asoslari./ Iqtisodiyot va ta'lim. 2011 yil, 4-son, 38-6.
31. Sobirov A. O'zbekiston Respublikasiga xorijlik investorlarni jalb qilish shakllari. /Iqtisodiyot va ta'lim, 2011 y., 5-son.
32. Стратегии модернизации и обеспечения долгосрочного устойчивогоэкономического роста. Форум экономистов Узбекистана. Т.: «СМИ-АСИА»,2011.63 стр.
33. Toshmatov Q., Jumaev A. "Chet el investitsiyalari qonunchiligi takomillashtirilmoqda." "Birja 7D" (iqtisodiy gazetasi, №10(1421), 2012 yil 26 yanvar.
34. O'zbekiston Respublikasining 2005 yil statistik axborotnomasi.T.; 2006.-97 b.
35. O'zbekiston iqtisodiyoti: Axborot va tahliliy sharh 2007 yil. T.:2008.- 128
36. O'zbekiston Respublikasining 2007 yil statistik axborotnomasi. T.: 2008. - 102 b.
37. O'zbekiston Respublikasining 2008 yil statistik axborotnomasi.T.: 2008. - 145 b.
38. O'zbekiston iqtisodiyoti. 2008 yil uchun axborot tahliliy byulleten, T.,avgust 2009 y., 90 b.
39. Yillik statistik to'plam 2008. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. T.: 2009. - 386 6.
40. Статистическое обозрение Узбекистана за 2009 год. Т.: 2010. - 87с.
41. Содружество Независим Государств в 2009 году. М.: 2010. - 244с.
42. Экономка Узбекистана: информационно-аналитический бюллетен. Т.:2010.-70с.

43. O'zbekiston Respublikasining 2009 yil statistik axborotnomasi. T.: 2010.-156 b.

44. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendentsiya va ko'rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlari: statistik to'plam. - T.: "O'zbekiston", 2011, 180 b.

III. Internet saytlari.

1. <http://www.mf.uz> - O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi veb portali.

2. <http://www.stat.uz> - O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi veb sayti.

3. <http://www.mfer.uz> Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo vazirligi.

4. www.wordbank.org. - Jahon Banki ma'lumotlari.

5. <http://www.ved.gov.ru/articles>